

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

AVTOMATIK BOSHQARISH NAZARIYASI

fanidan laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarish uchun

O‘QUV-USLUBIY QO‘LLANMA

Toshkent – 2015

UDK 681.5.011

Tuzuvchilar: Igamberdiev X.Z., Sevinov J.U.

«Avtomatik boshqarish nazariyasi» fanidan laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarish o‘quv-uslubiy qo‘llanma. Toshkent 2015. – 146 b.

O‘quv-uslubiy qo‘llanma «Avtomatik boshqarish nazariyasi» fani bo‘yicha laboratoriya mashg‘ulotlarini bajarishga doir ko‘rsatmalar hamda hisobotni rasmiylashtirishga misollar keltirilgan. Chiziqli va nochiziqli boshqarish sistemalarini loyihalash, turg‘uniklarini tekshirish, optimallashtirish, raqamli boshqarish sistemalari hamda tasodigiy jarayonlarni tadqiq qilishga oid ma’lumotlar berilgan. Laboratoriya ishlarni bajarish MATLAB dasturiy paketlaridan foydalaniladi.

Ushbu uslubiy ko‘rsatma oliy o‘quv yurtlarining 5311000 – «Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish» yo‘nalishi bakalavr talabalari hamda unga turdosh mutaxassislik talabalari uchun mo‘ljallangan.

ToshDTU ilmiy-uslubiy kengashining qaroriga muvofiq chop etildi

Taqrizchilar:

- G‘ulomov Sh.M. – ToshDTU «IChJA» kafedrası professorı, texnika fanları doktori;
- Sapaev M. – Toshkent axborot texnologiyalari universiteti dotsent, texnika fanları nomzodi.

© Toshkent davlat texnika universiteti

KIRISH

Avtomatika fan va texnikaning avtomatik boshqarish nazariyasi va amaliyoti, avtomatik tizimlarni qurish prinsiplari va texnik jihatlarini o'z ichiga oladi. Avtomatlashtirish – bu texnik jihozlarning qo'llanilishi, matematik usullar va boshqarish tizimlarida, buning natijasida inson qisman yoki butunlay axborot olishda o'zgartirish, uzatish va energiyani ishlatishdan ozod bo'ladi.

Avtomatlashtirishning maqsadi – mehnat unumdorligi va ishlab chiqarishning sifatini oshirish rejalarini avtomatlashtirish, optimallashtirish va boshqarish, insonni zararli sharoitlarda ishlashdan ozod qilishdir.

Evropada sanoatidagi XVIII asrning oxirida bo'lgan birinchi keskin burilish natijasida vujudga kelgan rostlagichlar (1765 yilda I.I.Polzunovning sath rostlagichi, 1784 yilda D.Uattning bug' mashinasi tezligini rostlagichi) tashqi muhit ta'siri ostida ishlovchi texnik qurilmalarning ishini stabillashga mo'ljallangan edi. Eng samarali usul manfiy teskari bog'lanishdan foydalanish edi, XIX asrda poluintuitiv kiritildi va kerakli hisob-kitoblarsiz bu doim ham kerakli samarani bera olmasdi. Manfiy teskari bog'lanishli rostlagichlarni qo'llashda ko'pincha taxmin qilingan afzalliklar o'rniga kutilmagan texnik hodisalarga: noturg'unlik va yangi harakatlar paydo bo'lishiga duch kelishar edi. Bu hodisalarni tadqiq etish uchun mos usullar talab qilindi, bu usullar g'ayrioddiy xususiyatlarni nafaqat tushuntirib berishi, balki rostlagichlar tavsifining umumiy qonuniyatlarini qarab chiqishga imkon berishi lozim edi. Ularning asoslari XIX asrning oxirlarida ingliz matematik-mexanigi D.Maksvellning (1866 y.) hamda rus mexanigi I.A.Vishnegradskiyning (1876, 1877 yy.) «rostlagichlar haqida» gi birinchi asarlarida bayon etib berildi. Yangi

nazariyalarning jadal rivojlanishi elektrotexnik tizimlar, xususan elektromashinalar va radioavtomatika tizimlarining paydo bo'lishi bilan boshlandi. Shu paytgacha, elektr mashinaning tezligini rostdash tizimi avtomatik boshqarishning klassik namunasi hisoblanib keldi. Keyinchalik ma'lum bo'ldiki, avtomatik boshqaruv nazariyasining usullari mexanika, energetika, radio- va elektrotexnikada, ya'ni teskari aloqani qo'llash mumkin bo'lgan hamma sohhadagi turli fizik tabiatli ob'ektlarning ishlashini tushuntirib berishi mumkin ekan. Barcha usullarni bir vazifa birlashtirib turadi: o'tish jarayonlaridagi kerakli aniqlikni va qanoatlantiruvchi sifatni ta'minlab berish. Shunday qilib, avtomatik boshqaruv nazariyasi, mohiyatiga ko'ra, manfiy teskari bog'lanishli tizimlardagi jarayonlar nazariyasi hisoblanadi. Ayni vaqtda, avtomatik boshqaruv nazariyasi o'zining tahliliy apparati bilan ilmiy fanga aylangan.

Avtomatik boshqarish nazariyasining o'rganish predmeti teskari bog'lanishli avtomatik tizimlarni konstruksiyalash, ularning xossalari, hisoblash usullari hisoblanadi. Fan va texnikaning hozirgi taraqqiyotida modellarni tuzish uchun odatda, makroolam fizikasi va mexanikasining asosiy qonunlari shakllangan tildan, ya'ni differensial tenglamalar apparatidan foydalaniladi. Shunday ekan, avtomatik boshqaruv nazariyasining predmeti avtomatik tizim modelining xossalari hisoblanadi, bu xossalar differensial tenglamalar hamda ularning turli o'zgartirishlari va interpretasiyalari ko'rinishida ifodalanadi.

1 – LABORATORIYA ISHI

OCHIQ CHIZIQLI SISTEMALARNI TADQIQ ETISH

Ishning maqsadi

- MATLAB vositasi yordamida bir o'lchamli chiziqli uzluksiz sistemalarni taxlil qilish usullarini o'zlashtirish

Ishning vazifasi

- sistema modelini uzatish funksiyasi shaklida kiriting;
- «nul-qutb» formasi va fazo xolatlarida ekvivalent modelini tuzing;
- o'rnatilgan rejimda kuchaytirish koeffisienti va sistemaning o'tazuvchanlik palasasini aniqlang;
- impulsli va o'tkinchi xarakteristikalarini, nul va qutblarni joylashish xaritasini, chastotali xarakteristikalarini qurishni o'rganish;
- turli xarakteristikalarini qurish uchun **LTIVIEWER** oynasidan foydalanishni o'rganish;
- ixtiyoriy kirish signalida chiziqli sistema chiqishidagi jarayonlarni qurishni o'rganish.

Hisobotni rasmiylashtirish

Laboratoriya ishi bo'yicha hisobot *Microsoft Word* formati faylida (asosiy matn 1,5 interval orqali kengligi bo'yicha tekislab 12 pt o'lchamdagi **Times New Roman** shriftida) matnlar ketma-ketligi ko'rinishida bajariladi. U o'zida quyidagilarni qamrab olishi shart:

- fanning nomi, laboratoriya ishining tartibi va nomi;
- muallifning familiya ism-sharifi, gurux raqami;
- o'qituvchining familiya ism-sharifi;
- variant raqami;
- tadqiq qilinayotgan sistemaning qisqacha tavsifi;
- kulrang fon bilan ajratilgan (pastga qarang) instruksiyaning hamma punktlarini bajarilish natijalari: hisoblash natijalari, grafiklar, savollarga javoblar.










Hisobotni tayyorlashda MATLAB vositasining ishchi stolidan axborotlarni almashtirish buferi orqali ko'chirib olish tavsiya etiladi. Buning uchun barcha belgilarni bir hil kenglikda qilib, **Courier New** shriftidan foydalaniladi.

Ishni bajarish bo'yicha instruksiya




Buyruqlarni asosiy qismi Matlab vositasining buyruqlar oynasida kiritiladi. Buyruqlarni boshqa oynada bajarish uchun mos dasturlar ajratib belgilangan.

Topshiriqni bajarish tartibi	MATLAB buyruqlari
1. MATLAB ni ishchi xolatini tozalash (xotira).	<code>clear all</code>
2. MATLAB oynasini tozalash.	<code>clc</code>
3. tf buyrug'i bo'yicha qisqacha ma'lumot (yordam) olish .	<code>help tf</code>
4. Ushbu buyruqning bajarilishi fayli adresini aniqlash.	<code>which('tf')</code>
5. tf ob'ekti sifatida $F(s) = \frac{n_2 s^2 + n_1 s + n_0}{s^3 + d_2 s^2 + d_1 s + d_0}$ uzatish funksiyasini ¹ kiriting.	<code>n = [n2 n1 n0]</code> <code>d = [1 d2 d1 d0]</code> <code>f = tf (n , d)</code>
6. Shubu ob'ektda uzatish funksiyasi surati va mahrajleri ko'rinishini tekshirib ko'ring.	<code>[n1,d1] = tfdata (f , 'v')</code>
7. Uzatish funksiyasining nul va qutblarini toping.	<code>z = zero (f)</code> <code>p = pole (f)</code>
8. O'rnatilgan rejimda zvenoning kuchaytirish koefitsientini toping.	<code>k = dcgain (f)</code>
9. Sistemaning o'tazuvchanlik palasasini aniqlang (AChX da kichik chastota -3 dB dan kichik qiymatni tashkil etadi).	<code>b = bandwidth (f)</code>
10. Fazo xolatida sistemaning modelini quring.	<code>f_ss = ss (f)</code>
11. Shunday qilingki, to'g'ri uzatish koefitsienti 1 ga teng bo'lsin.	<code>f_ss.d = 1</code>
12. O'rnatilgan rejimda zvenoning yangi kuchaytirish koefitsientini toping.	<code>k1 = dcgain (f_ss)</code>
13. k va k_1 koefitsientlar qanday bog'langan? Nima uchun?	

¹ Barcha koefitsientlarni fayl oxirida keltirilgan jadvaldan olish kerak.

14. «Nul-qutb» formasida berilgan sistemaning modelini quring.	$f_{zp} = zpk (f)$
15. Ishchi fazoda qanday o'zgaruvchilar mavjud, tekshiring.	who yoki whos (farqi nimada?)
16. Sistemaning nul va qutblarini joylashish grafigini quring.	pzmap (f)
17. Barcha elementar zvenolar uchun dempirlash koeffisienti va xususiy chastotalarni aniqlang.	[wc,ksi,p] = damp (f)
18. LTIViewer modulini ishga tushiring.	Ltview
19. f modelini yuklang.	 LTI Viewer File-Import
20. Ushbu sistemaning impul'sli xarakteristikasini (vazn funksiyasini) quring.	 LTI Viewer SO'T-Plot Types-Impulse
21. f_{ss} modelini yuklang.	 LTI Viewer File-Import
22. Ikkinchi sistemaning impul'sli xarakteristikasi qurilgan-mi, tekshiring?	 LTI Viewer SO'T -Systems
23. f sistemani ajrating. Turli sistemalar impul'sli xarakteristikalari nima uchun bir xil?	 LTI Viewer SO'T-Systems
24. Ikkala sistemani ulang.	 LTI Viewer SO'T-Systems
25. Sistemaning o'tkinchi xarakteristikasini quring.	 LTI Viewer SO'T-Plot Types-Step
26. Grafikda ko'zda tuzilgan xar bir funksiyalarni bajaring: <ul style="list-style-type: none"> • maksimum • o'tish jarayoni vaqti² • o'sish vaqti (qaror qiymatning 10% dan 90% gacha) • qaror qiymati 	 LTI Viewer SO'T - Characteristics: <ul style="list-style-type: none"> • Peak Response • Settling Time • Rise Time • Steady State
27. Doira-belgili parametrlarning son qiymatlari bilan ekranda ko'rsatish uchun sichqoncha tugmasini bosing.	
28. Qurilgan grafikni alohida oynada eksport qiling.	 LTI Viewer File - Print to Figure

² MATLAB da o'rnatilgan qiymatdan 2%-ga og'ish qiymati orqali o'tish jarayoni vaqti aniqlanadi.

29. Grafikni vektorli metafile formatida buferga ko'chirib oling.	<code>print -dmeta</code>
30. Hisobotga (<i>Microsoft Word</i>) buferdagi grafikni quyung.	 SO'T - Vstavit`
31. LTViewer oynasini yoping.	
32. Chastotaviy xarakteristikani qurish uchun chastota massivini yarating (logarifmik shkalada teng taqsimlangan 10^{-1} dan 10^2 gacha intervalda 100 nuqta).	<code>w = logspace(-1, 2, 100);</code>
33. Berilgan sistemaning chastotaviy xarakteristikasini hisoblang ³ ...	<code>r = freqresp (f, w); r = r(:);</code>
34. ... va absissa o'qi bo'yicha logarifmik masshtabli o'qda uni quring.	<code>semilogx (w, abs(r))</code>
35. Grafikni vektorli metafile formatida buferga ko'chirib oling.	<code>print -dmeta</code>
36. Hisobotga (<i>Microsoft Word</i>) buferdagi grafikni quyung. Ctatistik rejimda kuchaytirish koeffisientini grafikdan qanday topish mumkinligini va sistemaning o'tkazuvchanlik palasasini qanday aniqlashni tushuntiring.	 SO'T - Vstavit`
37. MATLAB ning buyruqlar oynasidan tashqari oynalarni bekiting.	
38. Davri 4 sekundga (jami 5 ta impuls) teng bo'lgan birlik amplitudali uchburchaksimon impul'sli signalni quring.	<code>[u,t] = gensig('square',4);</code>
39. Modellashtirishni bajaring va kirish ma'lumotlar orqali f sistemaning chiqish signali grafigini quring.	<code>lsim (f, u, t)</code>
40. Grafikni vektorli metafile formatida buferga ko'chirib oling.	<code>print -dmeta</code>
41. Hisobotga (<i>Microsoft Word</i>) buferdagi grafikni quyung.	 SO'T - Vstavit`

³ Chastotali xarakteristikada xar bir element 3 indeksga ega bo'lgan uch o'lchamli massiv ko'rinida qaytadi: qator, ustun (ko'po'lchamli modellar uchun) va chastotaviy xarakteristikaning nuqtalari soni. Bitta kirish va bitta chiqishga ega bo'lgan sistemalar uchun oddiy bir o'lchamli massivda $r = r(:)$; buyrug'i ushbu ma'lumotlarni o'zgartiradi.

Koeffisientlar jadvali

Variant	n_2	n_1	n_0	d_2	d_1	d_0
1.	1.0	1.10	0.100	3.0000	3.1600	1.2000
2.	1.1	1.54	0.495	2.8000	2.9200	1.2000
3.	1.2	1.08	0.096	2.3727	2.2264	0.9091
4.	1.3	1.04	0.091	2.1909	2.0264	0.9091
5.	1.4	-1.54	0.252	1.8333	1.5278	0.6944
6.	1.5	-0.90	-0.240	1.6667	1.3611	0.6944
7.	1.6	0.80	-0.224	1.3286	0.8959	0.4592
8.	1.7	1.36	0.204	1.1857	0.7673	0.4592
9.	1.8	-1.98	0.432	1.2000	0.7644	0.3556
10.	1.9	-0.76	-0.399	1.3333	0.8711	0.3556
11.	2.0	0.60	-0.360	1.2000	0.7406	0.2734
12.	2.1	1.68	0.315	1.3250	0.8281	0.2734
13.	2.2	-2.42	0.616	1.3059	0.7696	0.2076
14.	2.3	-0.46	-0.552	1.4235	0.8401	0.2076
15.	2.4	0.24	-0.480	1.3889	0.7531	0.1543
16.	2.5	2.25	0.500	1.5000	0.8086	0.1543
17.	2.6	0.26	-0.780	1.2421	0.6139	0.1108
18.	2.7	-0.27	-0.810	1.1368	0.5717	0.1108
19.	2.8	0.28	-0.840	0.8000	0.3700	0.0500
20.	2.9	3.19	0.870	0.7000	0.3500	0.0500

Nazorat savollari

1. Quyidagi nazariy savollarga javob bering:

- uzatish funksiyasi deb nimaga aytiladi?
- uzatish funksiyasining noli va qutblari deganda nimani tushunasiz?
- impul'sli xarakteristika (vazn funksiyasi) deb nimaga aytiladi?
- o'tish funksiyasi deb nimaga aytiladi?
- chastotaviy xarakteristika deganda nimani tushunasiz?
- fazoviy holatda modelni tushuntiring?
- «nol – qutb» ko'rinishidagi modelni tushuntiring?
- statistik rejimda kuchaytirish koeffisienti deganda nimani tushunasiz?

- sistemaning o'tkazuvchanlik polosasi nima?
 - o'tish jarayoni vaqti deganda nimani tushunasiz?
 - sistemaning kesishish chastotasini tushuntiring.
 - tebranuvchi zvenoning xususiy chastotasi deganda nimani tushunasiz?
 - tebranuvchi zvenoning dempfirlash (tebranishni kamaytirish) koeffisientini tushuntiring.
2. Quyidagilar qaysi birliklarda o'lchanadi:
 - statistik rejimda kuchaytirish koeffisienti;
 - sistemaning o'tkazuvchanlik polosasi;
 - o'tish jarayoni vaqti;
 - sistemaning kesishish chastotasi;
 - tebranuvchi zvenoning xususiy chastotasi;
 - tebranuvchi zvenoning dempfirlash (tebranishni kamaytirish) koeffisienti.
 3. Tebranuvchi zvenoning doimiy vaqti bilan xususiy chastotasi qanday bog'langan?
 4. Fazoviy holatda sistemaning modeli to'rtlik matrisa

$$A = \begin{bmatrix} 1 & 2 & 1 \\ -1 & -3 & -1 \\ 2 & 2 & 2 \end{bmatrix}, B = \begin{bmatrix} 1 \\ 0 \\ 0 \end{bmatrix}, C = [1 \quad 2], D = 0$$

- ko'rinishida bo'lishi mumkinmi? Nima uchun? Umumiy holda matrisalar orasida qanday munosabatlar bajarilishi kerak?
5. MATLAB ni biror bir buyrug'i to'g'risida qisqa ma'lumotni qanday olish mumkin?
 6. MATLAB ning quyidagi buyruqlari orasida qanday farq bor
who va whos clear all va clc
 7. $F(s) = \frac{2s+3}{s^2+4s+5}$ uzatish funksiyasin qanday kiritiladi?
 8. Statik kuchaytirish koeffisientida to'g'ri uzatish koeffisienti (fazo holatidagi modelda D matrisa) ning o'zgarish ta'siri qanday?
 9. **LTIVIEWER** modulining qanday imkoniyatlari mavjud?
 10. `f_ss` sistemaning impul'sli xarakteristikasi to'g'risida nimalar deyish mumkin? Nima uchun u ishonchli qurilmagan?
 11. O'rnatilgan rejimda AChX bo'yicha kuchaytirish koeffisientini qanday topiladi? Sistemaning o'tazuvchanlik palasasinichi?
 12. MATLAB oynasidan boshqa programmaga grafikni qanday ko'chiriladi?
 13. Logarifmik shkalada teng taqsimlangan 10^{-1} dan 10^2 gacha intervalda 200 nuqutali massivni qanday quriladi ?
 14. AChX grafigida qaysi kattaliklar o'q bo'yicha og'adi?

Avtomatik boshqarish nazariyasi
1 – LABORATORIYA ISHI BO‘YICHA HISOBOT
Ochiq chiziqli sistemalarni tadqiq etish

Bajardi: _____

Tekshirdi: _____

Variant _____

20

1. Sistemaning tavsifi

Matematik modeli

$$F(s) = \frac{2.9s^2 + 3.19s + 0.87}{s^3 + 0.7s^2 + 0.35s + 0.05}$$

ko‘rinishdagi uzatish funktsiya bilan ifodalangan sistemani tadqiq qilinadi.

2. Tadqiqot natijalari

- tf.m fayl adresi:
E:\MAT\LAB\toolbox\control\control\@tf\tf.m
- uzatish funktsiyasi nullari
-0.6000
-0.5000
- uzatish funktsiyasi qutblari
-0.2500 + 0.4330i
-0.2500 - 0.4330i
-0.2000
- o‘rnatilgan rejimda zvenoning kuchaytirish koeffitsienti
k = 17.4000
- sistemaning o‘tazuvchanlik palasasi
b = 0.4808 rad/sek
- fazo xolatida sistemaning modeli

a =	-0.7000	-0.1750	-0.0500
	2.0000	0	0
		0	0.5000
b =	2		
	0		
	0		
c =	1.4500	0.7975	0.4350
d =	0		
- statik kuchaytirish koeffitsientida D matrisaning o‘zgarishi
k1 = 18.4000

k va k_1 koeffitsientlar orasidagi aloqa orqali tushuntiriladi.

- «nol-qutb» formasidagi model


$$2.9 (s+0.6) (s+0.5)$$

$$(s+0.2) (s^2 + 0.5s + 0.25)$$


- dempfirlash koeffitsienti va kesishish chastotalari

Uzatish funksiyasi qutblari	Husuriy chastota, rad/sek	Doimiy vaqt, sek	Dempfirmash koeffitsienti
-0.2000	0.2000	5	1.0000
-0.2500 + 0.4330i	0.5000	2	0.5000
-0.2500 - 0.4330i	0.5000	2	0.5000


- f va f_{ss} sistemalarning impul'sli xarakteristikalari bir xil chiqdi, chunki ...
- berilgan va shakillangan (modifikasiyalangan) sistemaning o'tish jarayoni



- amplituda chastotali xarakteristikasi



- AChX bo'yicha statistik kuchaytiish koeffitsientini topish uchun
- AChX bo'yicha o'tkazuvchvnlk palasasini topish uchun
- to'g'riburchakli impul'sli xolati signalga ta'siri



2 – LABORATORIYA ISHI

CHIZIQLI SISTEMA UCHUN ROSTLAGICHNI LOYIHALASH

Ishning maqsadi

- MATLAB vositasi yordamida bir o'lichamli chiziqli uzluksiz sistemalar uchun rostlagichni loyihalash usullari o'zlashtirish.

Ishning vazifasi

- chiziqli zvenolarni ulash modellarini tuzishni o'rganish;
- oddiy rostlagichlarni loyihalashda **SISOTool** modulidan foydalanishni o'rganish.

Hisobotni rasmiylashtirish

Laboratoriya ishi bo'yicha hisobot *Microsoft Word* formati faylida (asosiy matn 1,5 interval orqali kengligi bo'yicha tekislab 12 pt o'lchamdagi **Times New Roman** shriftida) matnlar ketma-ketligi ko'rinishida bajariladi. U o'zida quyidagilarni qamrab olishi shart:

- fanning nomi, laboratoriya ishining tartibi va nomi;
- muallifning familiya ism-sharifi, gurux raqami;
- o'qituvchining familiya ism-sharifi;
- variant raqami;
- tadqiq qilinayotgan sistemaning qisqacha tavsifi;
- kulrang fon bilan ajratilgan (pastga qarang) instruksiyaning hamma punktlarini bajarilish natijalari: hisoblash natijalari, grafiklar, savollarga javoblar.


Hisobotni tayyorlashda MATLAB vositasining ishchi stolidan axborotlarni almashtirish buferi orqali ko'chirib olish tavsiya etiladi. Buning uchun barcha belgilarni bir hil kenglikda qilib, **Courier New** shriftidan foydalaniladi.

Sistema tavsifi

Ishda kema yo'nalishining stabilash sistemasi ko'riladi. Uning struktur sxemasi qo'yidagi 1-rasmda ko'rsatilgan.

Kema harakatini ta'riflovchi chiziqli matematik model` quyidagi ko'rinishga ega:

$$\begin{aligned}\dot{\varphi} &= \omega_y, \\ \dot{\omega}_y &= -\frac{1}{T_s} \omega_y + \frac{K}{T_s} \delta,\end{aligned}$$



O'lchov sistemasi

1-rasm. Kema yo'nalishining stabilash sistemasining struktur sxemasi

bu erda φ – goh u tomonga goh bu tomonga burilish burchagi (berilgan yo'nalishdan og'ish burchagi), ω_y – vertikal o'q atrofida aylanish burchak tezligi, δ – vertikal rulning muvozanat holatiga nisbatan burilish burchagi, T_s – doimiy vaqt, K – doimiy koeffitsient, birligi *rad/sek*.

Rul` burilish burchagidan u yoki bu tomonga burilish burchagiga uzatish funksiyasi quyidagi ko'rinishda yoziladi

$$P(s) = \frac{K}{s(T_s s + 1)}.$$

Yuritmaning chiziqli modeli o'zidan uzatish funksiyasi

$$R_0(s) = \frac{1}{T_R s}$$

ga teng bo'lgan birlik manfiy teskari bog'lanish bilan qamrab olingan integrallovchi zvenoni namoyon qiladi.

U yoki bu tomonga burilish burchagini o'lchash uchun girokompassdan foydalaniladi. Uning matematik modeli birinchi tartibli aperiodik zveno ko'rinishida uzatish funksiyasi bilan⁴ yoziladi.

$$H(s) = \frac{1}{T_{TB} s + 1}.$$








⁴ Fayl oxiridagi jadvaldan K , T_s , T_R va T_{TB} qiymatlarini oling.

Ishni bajarish bo'yicha instruksiya

Buyruqlarni asosiy qismi MATLAB vositasining buyruqlar oynasida kiritiladi. Boshqa programmalarda ishlatish kerak bo'lgan oynalar tegishli dasturlarning ikonkalari ko'rinishida belgilanadi.






Topshiriqni bajarish tartibi	MATLAB buyruqlari
1. Kema modelining uzatish funksiyasini kiriting $P(s) = \frac{K}{s(T_s s + 1)}$ ob'ekt qilib tf .	<code>P = tf (K, [Ts 1 0])</code>
2. Integrallovchi zvenoning uzatish funksiyasini kiriting $R_0(s) = \frac{1}{T_R s}$.	<code>R0 = tf (1, [TR 0])</code>
3. Birlamchi manfiy teskari bog'lanish integratorini yopib, rul qurilmasining uzatish funksiyasini tuzing	<code>R = feedback (R0, 1)</code>
4. Ob'ektni yuritma bilan ketma-ket ulash uzatish funksiyasini tuzing	<code>G = P * R</code>
5. Hosil bo'lgan modelni uzatish funksiyasini tuzing va bufer orqali hisobotga ko'chirib oling. Funksiyaning cheksiz o'sishishi va tug'ri chiziqqa intilishini nima uchunligini tushuntirib bering. Bu to'g'ri chiziqning qiyalik koeffisienti kanday? Grafik bilan oynani yoping.	<code>step (G)</code>
6. O'lchash qurilmasining uzatish funksiyasini quring $H(s) = \frac{1}{T_{TB} s + 1}$.	<code>H = tf (1, [T_TB 1])</code>
7. Ochiq konturning uzatish funksiyasini quring.	<code>L = G * H</code>
8. Ochiq sistemaning LAFChX ni quring ⁵ .	<code>bode (L)</code>

⁵ Chet el adabiyotida LAFChX Bode diagrammasi deb aytiladi.


<p>9. To'g'ri chiziqning 0 dB LAFChX bilan va to'g'ri chiziqning -180⁰ LAFChX bilan kesishishini aniqlovchi nuqtalarni belgilang.</p>	<p> Figure No. 1 SO'T - Characteristics - Stability (Minimum Crossing)</p>
<p>10. Berk sistemasining turg'un ekanligini aniqlang? Amplituda (<i>Gain margin</i>) va faza (<i>Phase margin</i>) buyicha turqunlik zapasi qanday? Bu holatda qaysi rostlagich ishlatilmaydi? LAFChX grafigini hisobotga ko'chirib oling.</p>	<p> Figure No. 1 Doira-belgi ustiga SChT</p>
<p>11. Berk sistemaning maksimal kuchaytirish koefficientini aniqlang. Natijasini tushuntirib bering.</p>	<p> Figure No. 1 SO'T - Characteristics - Peak Response</p>
<p>12. LAFChX oynasini yoping va SI-SOTool.⁶ modulini ishga tushiring</p>	<p>sisotool</p>
<p>13. Uzatish funksiyasini G model ob'ektiday (<i>Plant</i>) va H model datchikiday (<i>Sensor</i>) import qiling. F (fil'troldi) va C (rostlagich) bloklarini uzgarishsiz qoldiring (1 ga teng holda).</p>	<p> SISO Design Tool File - Import</p>
<p>14. Ildizli godograf tasvirini shunday uchiringki, oynada faqat LAFChX qolsin.</p>	<p> SISO Design Tool View - Root Locus (o'chirish)</p>
<p>15. Darhol uzatish funksiyalarining o'zgarishlarini ko'rish uchun oynanig tepa menyusidan SISOTool LTI-Viewer⁷ ni ishga tushiring. Bir birini yopadigan qilib, 2 ta oynani yonma-yon qilib joylashtiring.</p>	<p> SISO Design Tool Analysis - Response to Step Command</p>
<p>16. Boshqarish signali chiqishini o'chirib, faqat chiqishda uzatish funksiyasining grafigini qoldiring</p>	<p> LTI Viewer SO'T - Systems - Closed loop r to u</p>

⁶ SISO = Single Input Single Output, bitta kirish va bitta chiqishli sistema.

⁷ LTI = Linear Time-Invariant, chiziqli stasionar sistema.

<p>17. Qayta sozlash σ va uzatish funksiyasi vaqtini T_p⁸ aniqlang. Grafikni hisobotga ko'chirib oling.</p>	<p> LTI Viewer SO'T - Characteristics -</p> <ul style="list-style-type: none"> • Peak Response • Settling Time
<p>18. SISOTool oynasini oching. Qayta roslash taxminan 10% ga teng bo'lganda kuchaytirish koeffisientini aniqlang. Uzatish jarayonining vaqti qanday o'zgardi? Bu holda turg'unlik zahirasi qanday bo'ladi? Grafikni hisobotga ko'chirib oling.</p>	<p> SISO Design Tool sichqonchani LChX ga keltiring, <i>Current Compensator</i> maydonida rahirlang</p>
<p>19. MATLAB vositasi oynasiga o'ting va proporsional-differensial (PD) rostlagichning uzatish funksiyasini kiriting</p> $C_{pd}(s) = 1 + \frac{T_s s}{T_v s + 1}, \text{ bu erda } T_v = 1 \text{ sek,}$ <p>T_s esa – kema davri doimiyligi.</p>	<p>$C_{pd} = 1 + tf ([Ts \ 0], [Tv \ 1])$</p>
<p>20. SISOTool oynasiga o'ting. C bloki uchun baza modeliday Cpd rostlagichini import qiling.</p>	<p> SISO Design Tool File - Import, Cpd -> C</p>
<p>21. Qayta roslash taxminan 10% ga teng bo'lganda, qo'shimcha kuchaytirish koeffisientini aniqlang. Uzatish jarayoni vaqtini va turg'unlik zapaslarini aniqlang. proporsional va PD-rostlagichlarini taqqoslang. Uzatish jarayoni grafigini hisobotga ko'chirib oling.</p>	<p> SISO Design Tool sichqonchani LChX ga keltiring, <i>Current Compensator</i> maydonida rahirlang</p>
<p>22. Uzatish jarayoni vaqti minimal bo'lgan holda qo'shimcha kuchaytirish koeffisientini aniqlang. Uzatish jarayoni grafigini hisobotga ko'chirib oling.</p>	<p> SISO Design Tool sichqonchani LChX ga keltiring, <i>Current Compensator</i> maydonida rahirlang</p>

⁸ Matlab da belgilangan qiymatdan 2% og'ishida uzatish jarayoni vaqti aniqlanadi.

<p>23. Hosil bo'lgan roslagichni MATLAB ishchi doirasiga eksport qiling.</p>	<p> SISO Design Tool File - Export Export as ustunidan Cpd nomini Export to workspace tugmasidagi C ga o'zgartiring</p>
<p>24. Hosil bo'lgan berk sistemasining uzatish funksiyasini tuzing. Nima uchun bunday katta ifoda hosil bo'lganini o'ylab ko'ring. Uzatish funksiyasining tartibi qanday bo'lishi kerak?</p>	$W = C * G / (1 + C * G * H)$
<p>25. Uzatish funksiyasini W minimal realizasiyasini.</p>	$W = \text{minreal}(W)$
<p>26. Berk sistema uzatish funksiyasining qutblarni aniqlang. Ba'zi qutblarning mavhum o'qqa yaqinligi nimani anglatadi? Bu holda turg'unlik zapasi kam bo'lishi to'g'rimi?</p>	<p>pole (W)</p>
<p>27. Belgilangan rejimda sistemaning kuchaytirish koeffisientini aniqlang. Natijani tushuntirib bering. Doimiy signal izlanilishida bunday sistemada statik xatolik bormi? Nima uchun? Chiziqli kuchayuvchi signal uchun bunday sistemada statik xatolik bormi?</p>	<p>dcgain (W)</p>
<p>28. Agar datchik modeli $H(s) = \frac{2K_{oc}}{T_{oc} + 1}$ ko'rinishga ega bo'lsa, statik kuchaytiruvchi koeffisient qanday o'zgaradi?</p>	
<p>29. Berk sistemaning kirishdan boshqarish signaliga (rostlagich chiqishiga) uzatish funksiyasining minimal realizasiyasini tuzing.</p>	$W_u = \text{minreal}(C / (1 + C * G * H))$
<p>30. Birlamchi pog'onali kirish signalida boshqarish signalining o'zgarishini tuzing va grafikni hisobotga ko'chirib oling. Nimaga boshqarish signalining nolga intilishini tushuntirib bering.</p>	<p>step (Wu)</p>

Koeffisientlar jadvali

Variant	T_s , sek	K , rad/sek	T_R , sek	T_{TB} , sek
1.	16.0	0.06	1	1
2.	16.2	0.07	2	2
3.	16.4	0.08	1	3
4.	16.6	0.07	2	4
5.	16.8	0.06	1	5
6.	17.0	0.07	2	6
7.	17.2	0.08	1	1
8.	17.4	0.07	2	2
9.	17.6	0.06	1	3
10.	17.8	0.07	2	4
11.	18.0	0.08	1	5
12.	18.2	0.09	2	6
13.	18.4	0.10	1	1
14.	18.6	0.09	2	2
15.	18.8	0.08	1	3
16.	19.0	0.07	2	4
17.	19.2	0.08	1	5
18.	19.4	0.09	2	6
19.	19.6	0.10	1	1
20.	18.2	0.0694	2	6

Himoya uchun nazorat savollari

1. № 1 laboratoriya ishining hamma savollarini ko'rib chiqing.
2. SISO, LTI qisqartmalari nimani anglatadi?
3. Sistemaning chiziqli differensial tenglamalari buyicha uzatish funksiyasini qanday hosil qilsa bo'ladi?
4. MATLAB oynasida qanday uzatish funksiyasini kiritisa bo'ladi?
5. MATLAB da qanday operatsiyalar yordamida parallel va ketma-ket ulash, teskari bog'lanishli sistemalar modellari tuziladi?
6. Berk sistemaning LAFChX si qanday tuziladi?
7. Faza va amplituda buyicha turg'unlik zaxiralari qanday aniqlanadi? Bu kattaliklar nimani anglatadi? Ular qanday birliklarda o'lchanadi?
8. **SISOTool** moduli qanday imkoniyatlarga ega?
9. Quyidagilar nimani anglatadi?
 - ildizli godograf
 - qayta sozlash
 - uzatish jarayonining vaqti
10. Kuchaytirish koeffisientining o'sishi LAFChX ga qanday ta'sir ko'rsatadi?
11. Nima uchun PD-rostlagichning differensial qismida vaqt doimiyligi T_v aperiodik zveno ko'rinishidagi qo'shimcha fil'tr ishlatiladi?
12. P-rostlagich bilan solishtirganda PD-rostlagichini qo'llash qanday afzalliklar beradi?
13. Kuchaytirish koeffisientining oshishi qayta sozlashga va uzatish jarayoni vaqtiga qanday ta'sir qiladi?
14. Blokning barcha tavsiflarini bilgan holda, berk sistemaning uzatish funksiyasi tartibini qanday aniqlasa bo'ladi?
15. Berk sistemasi uzatish funksiyasining kam turg'unlik zaxirali mavhum o'qga qutblar yaqinligi bog'likmi?
16. Berk sistemasi statik kuchaytirish koeffisienti o'lchash qurilmasining tavsiflariga qanday bog'liq?
17. Astatik sistema nima? Astatizm tartibi nima?

Avtomatik boshqarish nazariyasi
2 – LABORATORIYA ISHI BUYICHA HISOBOT
Chiziqli sistema uchun rostlagichni loyihalash

Bajardilar: _____


Tekshirdi: _____

Variant

20

1. Sistema tavsifi

Ishda kema yoʻnalishining stabillash sistemasi koʻriladi. Uning struktur sxemasi rasmda koʻrsatilgan.



Oʻlchov sistemasi

Kema yoʻnalishining stabillash sistemasining struktur sxemasi

Kema harakatini taʼriflovchi chiziqli matematik model quyidagi koʻrinishga ega

$$\dot{\varphi} = \omega_y,$$

$$\dot{\omega}_y = -\frac{1}{T_s} \omega_y + \frac{K}{T_s} \delta,$$

bu erda φ – goh u tomonga goh bu tomonga burilish burchagi (berilgan yoʻnalishdan ogʻish burchagi), ω_y – vertikal oʻq atrofida aylanish burchak tezligi, δ – vertikal rulning muvozanat holatiga nisbatan burilish burchagi, T_s – doimiy vaqt, K – doimiy koeffitsient, birligi *rad/sek*.

Rul burilish burchagidan u yoki bu tomonga burilish burchagiga uzatish funksiyasi quyidagi koʻrinishda yoziladi

$$P(s) = \frac{K}{s(T_s s + 1)} .$$

Yuritma (rul mashinasi) taxminan integrallovchi zvenoday modellashtiriladi

$$R_0(s) = \frac{1}{T_R s} ,$$

birlamchi manfiy teskari bog'lanish bilan qamrab olingan.

U yoki bu tomonga burilish burchagini o'lchash uchun girokompasdan foydalaniladi. Uning matematik modeli birinchi tartibli aperiodik zveno ko'rinishida uzatish funksiyasi bilan⁹ yoziladi.

$$H(s) = \frac{1}{T_{TB} s + 1} , T_{TB} = 6 \text{ sek.}$$

2. Ochiq sistemani tadqiq etish


- Rulli qurilmaning uzatish funksiyasi

$$R(s) = \frac{1}{2s + 1} .$$

- Ob'ektni yuritma bilan ketma-ket ulash uzatish funksiyasi

$$G(s) = \frac{0.0694}{36.4s^3 + 20.2s^2 + s} .$$


- Bu modelning uzatish tavsifi:



Grafik qiyalik to'g'ri chizig'iga intiladi, chunki ...
Asimptotik qiyaligi ... teng

- Ochiq sistemaning LAFChX si


⁹ Fayl oxiridagi jadvaldan K , T_s , T_R va T_{TB} qiymatlarini oling.



- Rostlagichli sistema $C(s) = \dots$ turg'un, turgunlik zaxiralari: amplituda bo'yicha $-7,12$ dB, faza bo'yicha -26 gradus.
- Ochiq sistemaning maksimal kuchaytirish \dots teng. Bu shu bilan izohlanadi \dots

3. Proporsional (P) rostlagichli sistemani tadqiq etish


- $C(s) = \dots$ da berk sistemasi uzatish funksiyasi



- Uzatish funksiyasi vakti $T_{mn} = 305$ sek, kayta sozlash $\sigma = 51\%$.
- 10% dan oshmagan xolda kayta sozlashni ta'minlash uchun quyidagi kiyamatgacha regulyator kuchaytirish koeffisientini kamaytirish talab kilinadi

$$C(s) = 0.348$$

- $C(s) = 0.348$ da sozlangan berk sistemaning uzatish funksiyasi




- Uzatish jarayoni vakti $T_{nm} = 171$ sek,
- Turgunlik zaxiralari: amplituda buyicha 16,3 dB, faza buyicha 57.9 gradus.

4. Proporsional`-differensial` (PD-) rostlagichli sistemani tadqiq etish

- Rostlagich uzatish funksiyasining umumiy
- $C(s) = K_c \left(1 + \frac{T_s s}{T_v + 1} \right)$, bu erda $T_s = 18.2$ sek, $T_v = 1$ sek, koeffisient K_c esa sistema talblariga asosan loyixalash jarayonida tanlab olinishi kerak.

4.1. 10% qayta sozlashni ta`minlovchi rostlagich

- 10% kayta sozlashni ta`minlash uchun $K_c = 0.942$ ni tanlab olish talab kilinadi
- Sozlangan berk sistemaning uzatish funksiyasi




- Uzatish jarayoni vakti $T_{nm} = 52$ sek,

- Turgunlik zaxiralari: amplituda buyicha 15.9 dB, faza buyicha 60.2 gradus.
- P- roslagichi bilan solishtirganda PD-roslagichini kullash imkon beradi
- ...

4.2. Qisqa uzatish jarayonini ta'minlovchi roslagich

- Uzatish funksiyasining minimal vaktini ta'minlash uchun $K_c = 0.704$ ni tanlab olish talab kilinadi.
- Sozlangan berk sistemaning uzatish funksiyasi



- Uzatish jarayoni vakti $T_{nm} = 34$ sek.
- Turgunlik zaxiralari: amplituda buyicha 18.4 dB, faza buyicha 67.3 gradus.
- Berk sistemaning uzatish funksiyasi

$$0.025771 (s+0.05208) (s+0.1667)$$

$$(s+0.9892) (s+0.5459) (s+0.04826) (s^2 + 0.1382s + 0.008584)$$

- Uzatish funksiyasi tartibi 5 ga teng, chunki...
- Uzatish funksiyasining kutblari
 - 0.9892
 - 0.5459
 - 0.0691 + 0.0617i
 - 0.0691 - 0.0617i
 - 0.0483
- Mavxum ukka kutblarning yakinligi, anglatadi ... Bunda turgunlik zaxirasi...
- Belgilangan rejimda sistemaning kuchaytirish koeffisienti teng ... Bush uni anglatadiki...
- Uzgarmas signalda belgilangan xatolik ..., chunki ...
- Tugri chizikli oshuvchi signalda belgilangan xatolik ..., chunki...


- $H(s) = \frac{2K_{oc}}{T_{oc} + 1}$ model` bilan tavsiflanadigan datchikni kullashda quyidagi

rejimda kuchaytirish koeffisienti ... ga teng, chunki...

- Xosil bo'lgan sistema astatik hisoblanadi, ya'ni, doimiy kirish signalini xatoliksiz kuzatiladi. Bu quyidagi bilan aniqlanadi ...
- To'g'ri chiziqli oshuvchi signalda ...
- Kirishdan boshqarish signaliga berk sistemaning uzatish funksiyasi
 $13.5168 s (s+0.05208) (s+0.05495) (s+0.1667) (s+0.5)$

 $(s+0.9892) (s+0.5459) (s+0.04826) (s^2 + 0.1382s + 0.008584)$

- Birlamchi pog'onali kirish signalida boshqarish signalining o'zgarishi



- Boshqarish signali nolga intiladi, chunki...

3 – LABORATORIYA ISHI

SIMULINK PAKETIDA BOSHQARISH SISTEMALARINI LOYIHALASH

Ishning maqsadi

- SIMULINK paketida chiziqli sistemalarni modellashtirish usullari o‘zlashtirish

Ishning vazifasi

- SIMULINK paketida boshqarish sistemalarining modellarini qurish va tahrir qilishni o‘rganish;
- bloklar parametrlarini o‘zgartirishni o‘rganish;
- o‘tish jarayonini qurishni o‘rganish;
- loyihalash natijalarini rasmiylashtirishni o‘rganish;
- PID-rostlagichi yordamida o‘zgarmas g‘alayonlashlarning kompensasiya usulini o‘rganish.

Hisobotni rasmiylashtirish


Laboratoriya ishi bo‘yicha hisobot *Microsoft Word* formati faylida (asosiy matn 1,5 interval orqali kengligi bo‘yicha tekislab 12 pt o‘lchamdagi **Times New Roman** shriftida) matnlar ketma-ketligi ko‘rinishida bajariladi. U o‘zida quyidagilarni qamrab olishi shart:

- fanning nomi, laboratoriya ishining tartibi va nomi;
- muallifning familiya ism-sharifi, gurux raqami;
- o‘qituvchining familiya ism-sharifi;
- variant nomeri;
- tadqiq qilinayotgan sistemaning qisqacha tavsifi;
- kulrang fon bilan ajratilgan (pastga qarang) instruksiyaning hamma punktlarini bajarilish natijalari: hisoblash natijalari, grafiklar, savollarga javoblar.

Hisobotni tayyorlashda MATLAB vositasining ishchi stolidan axborotlarni almashtirish buferi orqali ko‘chirib olish tavsiya etiladi. Buning uchun barcha belgilarni bir hil kenglikda qilib, **Courier New** shriftidan foydalaniladi.

Sistema tavsifi

Ishda kemani yo‘nalish bo‘yicha boshqarish sistemasi ko‘riladi. Uning struktura sxemasi rasmda ko‘rsatilgan.



O'lchov sistemasi

1-rasm. Kema yo'nalishining stabilash sistemasining struktur sxemasi

Kema harakatini ta'riflovchi chiziqli matematik model` quyidagi ko'rinishga ega:

$$\dot{\varphi} = \omega_y,$$

$$\dot{\omega}_y = -\frac{1}{T_s} \omega_y + \frac{K}{T_s} \delta,$$

bu erda φ – goh u tomonga goh bu tomonga burilish burchagi (berilgan yo'nalishdan og'ish burchagi), ω_y – vertikal o'q atrofida aylanish burchak tezligi, δ – vertikal rulning muvozanat holatiga nisbatan burilish burchagi, T_s – doimiy vaqt, K – doimiy koeffitsient, birligi *rad/sek*.

Rul` burilish burchagidan u yoki bu tomonga burilish burchagiga uzatish funksiyasi quyidagi ko'rinishda yoziladi

$$P(s) = \frac{K}{s(T_s s + 1)}.$$

Yuritmaning chiziqli modeli o'zidan uzatish funksiyasi

$$R_0(s) = \frac{1}{T_R s}$$

ga teng bo'lgan birlik manfiy teskari bog'lanish bilan qamrab olingan integrallovchi zvenoni namoyon qiladi.

U yoki bu tomonga burilish burchagini o'lchash uchun girokompasdan foydalaniladi. Uning matematik modeli birinchi tartibli aperiodik zveno ko'rinishida uzatish funksiyasi bilan¹⁰ yoziladi.

¹⁰ Fayl oxiridagi jadvaldan K , T_s , T_R va T_{TB} qiymatlarini oling.

$$H(s) = \frac{1}{T_{TB}s + 1}$$



PD-rostlagichdan foydalanishda sistemaning o'tish jarayonlari tadqiq qilinadi

$$C(s) = K_c \left(1 + \frac{T_s s}{T_v s + 1} \right),$$

va PID-rostlagichning













$$C(s) = K_c \left(1 + \frac{T_s s}{T_v s + 1} \right) + \frac{1}{T_I s}$$




Ishni bajarish bo'yicha instruksiya







Topshiriqni bajarish tartibi	MATLAB buyruqlari
1. SIMULINK paketini ishga tushirish uchun simulink buyruq qatoriga buyruqni kiriting yoki MATLAB buyruq oynasida  tugmasini bosning.	simulink
2. <i>Simulink Library Browser</i> ochilgan oynasining yuqori menyusi orqali yangi model` yarating.	 Simulink Library Browser File - New - Model
3. <i>Simulink Library Browser</i> (Continuous guruhi) oynasidan Transfer Fcn (uzatish funksiyasi) blokini model oynasiga o'tkazing va kema modeli uzatish funksiyasining surat va mahrajini kiriting.	Blokka ikki marta bosish a. Numerator [K] b. Denominator [Ts 1 0]
4. Blokga Kema nomini bering.	Blok nomiga SChT
5. Shunga o'xshash yana Transfer Fcn tipdagi uchta blok qo'shing, ularni Yuritma , Rostlagich va Girokompas deb nomlang, kerakli parametrlarni kiriting. E'tibor beringki, ichki teskari bog'lanishni hisobga olgan holda yuritmaning uzatish funksiyasi $R(s) = \frac{1}{T_R s + 1}$ ga teng bulishi lozim.	



6. lab3.mdl ¹¹ nomi ostida modelni uzingizni papkangizga saqlab quying.	File - Save
7. Girokompas blokini belgilang va uni boshqa tomonga buring.	Ctrl+I bosish yoki Ctrl+R ikki marotaba bosish
8. Kema, Yuritma i Rostlagich bloklari nomlarini bloklar ostiga joylashtiring.	Blokka SO`T, Format - Flip name
9. O`zingizni hohishingizga qarab bloklar rangini tanlang.	Blokka SO`T, Format - Background color
10. Math Operations guruhidan Sum blokini model` oynasiga o`tkazing va uni rostagichning chap tomoniga joylashtiring.	SChT
11. Shunday qilingki, ikkinchi kirishning yig`indisi minus belgisi bilan hisoblansin (manfiy teskari bog`lanish).	Blokka ikki marotaba bosish, List of signs maydonida +- kiritish
12. Sources guruhidan Step blokini model` oynachiga o`tkazing va uni summatorning chap tomoniga joylashtiring. Unga Berilgan yo`nalish nomini bering.	
13. Signal uzatilishining vaqtini 0 va signal kattaligini 10 o`rnatib (10 gradusga burilishni tadqiq qilyapmiz).	Blokka ikki marotaba bosish, Step time maydonida 0 Final value maydonida 10
14. Kerakli usul bilan barcha bloklarni biriktiring.	Bir blokning chiqishiga SChT bosib (ko`rsatkich belgisi plyus ko`rinishini oladi), ikkinchi blokning kirishiga olib boriladi
15. Sinks guruhidan ikkita Scope (ossillograf) blokini model` oynasiga o`tkazing va ularni o`ng tomonga joylashtiring. Ularga Rul` va Yo`nalish deb nom bering.	

¹¹ SIMULINK paketida barcha model fayllari qisqartmasi **.mdl** bo`ladi.

<p>16. Shunday qilingki, birinchi Scope blokiga boshqarish signali uzatilsin (rul` burilish burchagi, Yuritma blokidan so`ng), ikkinchisiga esa – chiqish signali (kema yo`nalishi). Soxranite modelni saqlab quying.</p>	<p>Signal tanlash chizig`ida SO`T bosib, so`ngra SO`T quyib yubormasdan bolk kirishiga olob borish.</p>
<p>17. Barcha elementlar ko`rinib turgan oynani minimal o`lchamgacha kichiklashtiring va almashtirish buferiga model`ni nusxasini ko`chiring. So`ng uni almashtirish buferidan hisobotga quying.</p>	<p> lab3 Edit – Copy model to clipboard</p> 
<p>18. Loyihalash vaqtini 100 soniya qilib o`rnating.</p>	<p> lab3 Simulation – Simulation parameters Stop time maydonida 100</p>
<p>19. Loyihalashni bajaring.</p>	<p> lab3 da  tugmasi bo`yicha SChT</p>
<p>20. Yo`nalish va Rul` bloklari oynalarini ochib, loyihalash natijalarini ko`rib chiqing.</p>	<p> lab3 Boklarga ikki marotaba bosish</p>
<p>21. Bloklar oynalarida o`qlar bo`yicha masshtabni to`g`rilang.</p>	<p> Kypc da  tugama bo`yicha SChT – optimal masshtabni o`rnatish</p>
<p>22. Masshtab parametrlarini saqlang.</p>	<p> Kypc da  tugama bo`yicha SChT</p>
<p>23. Shunday qilingki, loyihalash natijalari ikkala Scope blokidan MATLAB ishchi doirasiga birinchi ustuni –vaqt, ikkinchisi esa – signal (yo`nalish yoki rul`ning burilish burchagi) bo`lgan matrisa ko`rinishida uzatilsin.</p>	<p> Kypc  tugama bo`yicha SChT qo`shimcha Data history <input type="checkbox"/> Limit data points <input checked="" type="checkbox"/> Save data to workspace Variable name: phi (Yo`nalish) yoki delta (Rul`) Format: Array</p>

24. Yana bir marta loyihalashni bajaring.	 da  tugmasi bo'yicha SChT
25. MATLAB buyruqlar oynasiga o'ting va grafik uchun yangi oyna yarating. Bitta oynada turli o'qlarda ikkita egri chiziq chiziladi.	<code>figure(1);</code>
26. Vertikal bo'yicha oynani ikki qismga buling va birinchi grafikni aktiv qiling. subplot buyrug'idagi birinchi raqam vertikal bo'yicha grafiklar bilan katakchalar miqdorini, ikkinchisi – gorizontal buyicha, uchinchisi – aktiv qilish lozim bo'lgan katak raqamini anglatadi..	<code>subplot(2, 1, 1);</code>
27. Yo'nalishning o'zgarish grafigini quring. plot buyrug'ida avval absissa massivi, so'ng – ordinata massivi ko'rsatiladi. Ikki nuqta barcha qatorlar ishlatilayotganini anglatadi.	<code>plot(phi(:,1),phi(:,2));</code>
28. Grafik nomini kiriting.	<code>title('Yo'nalish');</code>
29. Koordinata o'qlari nomlarini kiriting. Grek harflarini kiritish uchun ajratish belgisi quyiladi. LaTeX buyruqlaridan foydalanish ruxsat beriladi. Masalan, « ϕ » - ϕ grek harfini, « δ » esa – δ grek harfini anglatadi..	<code>xlabel('Vaqt, sek');</code> <code>ylabel('\phi, gradus');</code>
30. Shunga o'xshash ikkinchi katakchada loyihalash natijasida olingan delta massivi ma'lumotlarini ishlatib, rul burilish burchagining o'zgarish grafigini quring.	<code>subplot(2, 1, 2);</code> <code>plot(delta(:,1),delta(:,2));</code> <code>title('Rulning burilish burchagi');</code> <code>xlabel('Vaqt, sek');</code> <code>ylabel('\delta, gradus');</code>
31. Qurilgan grafikning nusxasini hisobotga ko'chiring.	<code>print -dmeta</code>
32. Model oynasida yuritma va ob'ekt orasidagi bog'lanishni o'chiring.	 chiziq bo'yicha SChT, Delete bosish.

<p>33. Dobav`te eshe odin blok Sum iz gruppi Math Operations guruhidan yana bir Sum blokini qo`shing va uni bo`shagan joyga joylashtiring. Kirish va chiqishlarning joylashishi shunday to`g`rilangki, birinchi kirish aylananing yuqori qismida joylashishi kerak.</p>	<p> blokka ikki marotaba bosish, List of signs maydonida +- kiritish</p>
<p>34. Sistemaning ob`ekt kirishiga ko`yilgan doimiy signaliga reaksiyasini tadqiq qilamiz. U qandaydir doimiy g`alayonlovchi ta`sirni loyihalashi mumkin, masalan, shamol ta`siri.</p>	
<p>35. Berilgan yo`nalish blokini sichqonchani o`ng tugmasi bilan o`tkazib va u uchun sakrash kattaligini 2 gradusga o`rnatib nusxasini ko`chiring. Unga G`alayonlash nomini bering. Uning chiqishini yangi summatorga ulang. Kerakli birikish chiziqlarini chizib chiqing.</p>	<p> SO`T orqali ko`chirib keling. Blokka ikki marotaba bosish Final Value maydonida 2 nomiga ikki marotaba bosish</p>
<p>36. Olingan model`ning nusxasini hisobotga ko`chiring.</p> 	<p> Edit - Copy model to clipboard</p>
<p>37. Loyihalash vaqtini 500 gacha ko`paytiring va loyihalashni bajaring. 10 gradus berilgan yo`nalishga kema chiqqanligini tekshiring.</p>	<p> Simulation - Simulation parameters - Stop time  tugma bo`yicha SChT</p>
<p>38. PD-rostlagichli yopiq sistemasining g`alayonlash bo`yicha uzatish funksiyasini quring. U yordamida oldingi qadamda olingan natijani tushuntirib bering.</p>	
<p>39. Bu uzatish funksiyasi uchun belgilangan rejimda kuchaytirish koeffitsientini aniqlang. U yordamida 10 gradus berilgan yunalishda va rul`burilishining 2 gradusga ekvivalent doimiy g`alayonlashda chiqish signalining belgilangan qiymatini hisoblang. Bu son loyihalash natijalari bilan mos keladimi?</p>	

<p>40. MATLAB buyruqlar oynasiga va yangi massivlarda loyihalash natijalarini eslab qoling. Ular sistemaning korrektorlangan va boshlang'ich variantlarini farqlash uchun kerak bo'ladi.</p>	<pre>phi0 = phi; delta0 = delta;</pre>
<p>41. Rostlagich galayonlashning doimiy tashkil etuvchisini kompesasiyalashi uchun integral kanali qo'shishi lozim. Shunday qilib PID-rostlagichi hosil bo'ladi. Rostlagichga $\frac{1}{T_i s}$, $T_i = 200$ sek uzatish funksiyali integrallovchi zvenoni parallel' ulang. Model'ni saqlang va nusxasini hisobotga ko'chiring.</p>	
<p>42. Loyihalashni bajaring. Kemaning berilgan 10 gradus yo'nalishiga chiqqanligi tekshiring.</p>	 <p>tugma bo'yicha SChT</p>
<p>43. PID-rostlagichli yopiq sistemasining g'alayonlash bo'yicha uzatish funksiyasini quring. U yordamida oldingi qadamda olingan natijani tushuntirib bering.</p>	
<p>44. Bu uzatish funksiyasi uchun belgilangan rejimda kuchaytirish koeffisientini aniqlang. U yordamida 10 gradus berilgan yunalishda va rul' burilishining 2 gradusga ekvivalent doimiy g'alayonlashda chiqish signalining belgilangan qiymatini hisoblang. Bu son loyihalash natijalari bilan mos keladimi?</p>	

<p>45. PD- va PID- rostlagichlari uchun grafikning yuqori qismida yo'nalish bo'yicha o'tish jarayonlari g^2 ta egri chizig'ini quring. plot buyrug'ida bir nosta massivlar juftliklari hisoblanishi mumkin – birinchi juftlik birinchi grafikga mos keladi, ikkinchisi – ikkinchisiga. Qator oxiridagi uchta nuqta buyruqning keyingi qatorga o'tkazilishi anglatadi. legend buyrug'i legendani – qurilgan har bir grafikni ta'riflovchi simvol qatorlarini chiqarish uchun xizmat qiladi.</p>	<pre>subplot(2, 1, 1); plot(phi0(:,1), phi0(:,2),... phi(:,1), phi(:,2)); title('Yo'nalish); xlabel('Vaqt, sek'); ylabel('\phi, gradus'); legend('PD-rostlagich, ... 'PID- rostlagich');</pre>
<p>46. Shunga o'xshash, grafikning pastki qismida Δ_0 i Δ massivlari ma'lumotlarini qo'llab PD- va PID- rostlagichlari uchun rul'ning burish burchagining o'zgarishining 2 ta egri chizig'i quring.</p>	
<p>47. Almashtirish buferi orqali qurilgan grafikning nusxasini hisobotga ko'chiring. Sistemada o'tish jarayonlariga integral kanallarning ta'siri haqida xulosa chiqaring.</p>	
<p>48. PID-rostlagichli yopiq sistemasining uzatish funksiyasini quring.</p>	
<p>49. PID-rostlagichli sistemaning turg'unlik zaxiralarini aniqlang. Ular etarli darajada deb hisoblanadimi?</p>	<pre>[gm,phim] = margin(W) gm = 20*log10(gm)</pre>

Koeffisientlar jadvali

Variant	T_s , sek	K , rad/sek	T_R , sek	T_{TB} , sek
1.	16.0	0.06	1	1
2.	16.2	0.07	2	2
3.	16.4	0.08	1	3
4.	16.6	0.07	2	4
5.	16.8	0.06	1	5
6.	17.0	0.07	2	6
7.	17.2	0.08	1	1
8.	17.4	0.07	2	2
9.	17.6	0.06	1	3
10.	17.8	0.07	2	4
11.	18.0	0.08	1	5
12.	18.2	0.09	2	6
13.	18.4	0.10	1	1
14.	18.6	0.09	2	2
15.	18.8	0.08	1	3
16.	19.0	0.07	2	4
17.	19.2	0.08	1	5
18.	19.4	0.09	2	6
19.	19.6	0.10	1	1
20.	18.2	0.0694	2	6

Himoya uchun nazorat savollari

1. № 1 i № 2 ishlar bo'yicha barcha savollarga qarang.
2. Teskari bog'lanishli integratorning uzatish funksiyasi qanday aniqlanadi?
3. SIMULINK paketi qanday ishga tushiriladi?
4. *Library Browser* nima?
5. SIMULINK modellari fayllari qanday kengayishlarga ega?
6. Yangi model qanday yaratiladi.
7. Mos ravishda mustaqil chiqish va mustaqil kirishga ega bo'lgan ikkita blok qanday ulanadi?
8. Bitta signal bir nechta bloklarga uzatilishi uchun nima qilinadi?

9. MATLAB ishchi doirasiga loyihalash natijalari qanday uzatiladi? Qanday ko'rinishda ular uzatiladi?
10. Qanday blok yoki blok orasidagi bog'lanishlar o'chiriladi?
11. Qanday **Scope** oynasida koordinata o'qlarining kerakli mashtablari aniqlanadi va saqlanadi?
12. Model` oynasida blokning nusxasi qanday olinadi?
13. Summatorda arifmetik harakatlarning ishoralari qanday o'zgartiriladi?
14. Model` tasviri nusxasi *Microsoft Word* ga qanday ko'chiriladi?
15. Lohiyalash vaqti qanday o'zgartiriladi?
16. Blokning nomi qanday o'zgartiriladi?
17. Blokning nomi boshqa tomonga joylashishi uchun nima qilinadi?
18. Blov fonining rangi qanday o'zgartiriladi? Yozuvning rangi?
19. Kak vvesti parametri bloka **Transfer Fcn** (uzatish funksiyasi) bloki parametrlari qanday kiritiladi?
20. Sistemaning g'alayonlash bo'yicha uzatish funksiyasi fanday aniqlanadi?
21. Nima uchun PD-rostlagich ishlatilishida sistema doimiy g'alayonlashni kompensasiya qilmaydi?
22. G'alayonlash bo'yicha statik kuchaytirish koeffisientini bilgan holda, qanday berilgan yo'nalishdan belgilangan og'ishni aniqlash mumkin?
23. Doimiy g'alayonlash butunligicha kompensasiya qilinishi uchun g'alayonlash bo'yicha uzatish funksiyasi qayday xususiyatlarga ega bo'lishi kerak?
24. Doimiy g'alayonlash butunligicha kompensasiya qilinishi uchun rostlagich qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerak?
25. PID-rostlagichda integral kanalning ko'llanilishi qanday afzalliklar yaratadi?
26. Nima uchun PD-rostlagichli sistemasiga qaraganda, PID-rostlagichli g'alayonlash bo'yicha yopiq sistemasining uzatish funksiyasi 1 tartibga ko'proq?
27. **subplot** buyrug'i qanday parametrdarini qabul qiladi?
28. **phi (:,1)** yozuvdagi ikki nuqta nimani anglatadi?
29. Grafikka sarlavha va uqlar nomi qanday kiritiladi?
30. Qanday bitta oynada ikki turli grafik qurish mumkin?
31. Qanday bitta grafikda bir nechta egri chiziqqlar chizish mumkin?
32. Legenda nima? Grafikka legenda qanday chiqariladi?
33. Qanday grafikka grek alfavit harflari kiritiladi?

Avtomatik boshkarish nazariyasi
3 – LABORATORIYA ISHI BUYICHA HISOBOT
SIMULINK paketida boshqarish sistemalarni loyihalash

Bajardilar: _____


Tekshirdi: _____

Variant

20

Sistema tavsifi

Kemaning yo'nalish bo'yicha boshqarish sistemasi tadqiqot qilinmoqda. Uning struktura sxemasi rasmda ko'rsatilgan



Kemaning harakatlanishi chiziqli matematik model` orqali uzatish funksiyasi ko'rinishida ta'riflanadi

$$P(s) = \frac{K}{s(T_s s + 1)}, \text{ bu erda } K = 0.0694 \text{ rad/sek}, T_s = 18.2 \text{ sek},$$

Yuritma birlamchi manfiy teskari bog'lanishli integrallovchi zvenoday loyihalangani, shuning uchun uning uzatish funksiyasi teng

$$R(s) = \frac{1}{T_R s + 1}, \quad T_R = 2 \text{ sek},$$

O'lchov kurilma (girokompas) uzatish funksiyasi

$$H(s) = \frac{1}{T_{TB} s + 1}, \quad T_{TB} = 6 \text{ sek},$$


teng bo'lgan aperiodik zvenoday loyihalangani.

5. PD-rostlagichli sistemaning tadqiqoti


- O'tish jarayonining minimal davomlilikni ta'minlovchi PD-rostlagichning uzatish funksiyasi

$$C(s) = K_c \left(1 + \frac{T_s s}{T_v s + 1} \right), \quad \text{gde } K_c = 0.7045, T_s = 18.2 \text{ sek}, T_v = 1 \text{ sek},$$


- PD-rostlagichli sistemaning modeli



- PD-rostlagichli sistemaning yoʻnalishning 10 ga oʻzgarishida oʻtish jarayonlari



- Tashqi gʻalayonlashni hisobga olgan holda PD-rostlagichli sistemaning modeli



- PD-rostlagichli sistema uchun g'ayonlash bo'yicha uzatish funksiyasi

$$0.003813 s^3 + 0.006355 s^2 + 0.00286 s + 0.0003178$$

$$s^5 + 1.722 s^4 + 0.8416 s^3 + 0.1245 s^2 + 0.008877 s + 0.0002239$$

- PD-rostlagichli kema berilgan yo'nalish 10 gradusga chiqmadi, chunki...
- Statik kuchaytirish koeffisienti $k_s = 1.419$, chiqish signalining belgilangan qiymati teng bo'lishi kerak $\varphi_\infty = \dots$, chunki...; bu ma'lumotlar loyihalash natijalari bilan mos keladi.


6. PID-rostlagichli sistemaning tadqiqoti

- PID-rostlagichning uzatish funksiyasi

$$C(s) = K_c \left(1 + \frac{T_s s}{T_v s + 1} \right) + \frac{1}{T_I s}, \text{ bu erda } K_c = 0.7045, T_s = 18.2 \text{ sek,}$$

$$T_v = 1 \text{ sek, } T_I = 200 \text{ sek,}$$

- Tashqi g'ayonlashni hisobga olgan holda PID-rostlagichli sistemaning modeli




- PID-rostlagichli sistema uchun g'ayonlash bo'yicha uzatish funksiyasi

$$0.003813 s^4 + 0.006355 s^3 + 0.00286 s^2 + 0.0003178 s$$

$$s^6 + 1.722 s^5 + 0.8416 s^4 + 0.1245 s^3 + 0.008877 s^2 + 0.0002255 s + 1.589e-006$$

- PID-rostlagich qo'llanishida kema berilgan yo'nalishga chiqadi, chunki ...
- Statik kuchaytirish koeffisienti $k_s = \dots$, chiqish signalining belgilangan qiymati $\varphi_\infty = \dots$ ga teng bo'lishi lozim, chunki...; bu ma'lumotlar loyihalash natijalari bilan mos keladi.
- PD- va PID- rostlagichli sistemalarda uzatish funksiyalari



- PD- rostlagich o‘rniga PID- rostlagich qo‘llanilishida ... (nima yaxshilandi?)
- Bunda boshqarish signali ... (qanday o‘zgardi?)
- Shu bilan birga bir vaqtda ... (nima yomonlashadi?)
- PID-rostlagichli berk sistemaning uzatish funksiyasi

$$0.004298 s^2 + 0.0002255 s + 1.589e-006$$

$$s^6 + 1.722 s^5 + 0.8416 s^4 + 0.1245 s^3 + 0.004579 s^2$$

- Amplitula turg‘unlik zaxirasi $g_m = 18.4 \text{ dB}$, faza buyicha $\varphi_m = 63^\circ$, zaxiralar keraklicha deb hisoblanadi.

4 – LABORATORIYA ISHI

DINAMIK SISTEMALARNI TURG'UNLIGINI TADQIQ ETISH

4.1. Ishdan maqsad

- o avtomatik boshqarish sistemalarida turg'unlik masalarini echish;
- o turg'unlik shartlari va mezonlarini o'rganish;
- o **MatLAB** dasturi yordamida sistemaning turg'unligini tekshirish.

4.2. Jixozlanish

IBM PC tipidagi shaxsiy EHM va **MatLAB** dasturi.

4.3. Masalaning quyilishi

1. Dinamik sistemalarning turg'unligini aniqlash mezonlari bilan tanishish.
2. Sistemaning turg'unligini Naykvist mezoni bo'yicha aniqlash.

4.4. Nazarish qism

Sistema turg'unligini tadqiq etish uning xarakteristik tenglamasi ildizlarining ishorasini aniqlashdan, ya'ni xarakteristik tenglama ildizlarini kompleks tekisligida mavhum o'qqa nisbatan qanday joylashganligini aniqlashdan iborat. Kompleks tekisligida xarakteristik tenglama ildizlarining mavhum o'qqa nisbatan joylashganligini aniqlaydigan qoidalarga *turg'unlik mezonlari* deyiladi.

Sistemaning turg'unlik masalarini echishda quyidagi turg'unlik mezonlaridan foydalaniladi: Turg'unlikning algebraik mezonlari (Gurvis, Rauss va x.k.) va chastotaviy mezonlari (Mixaylov, Naykvist, turg'unlikning logarifmik mezonlari).

Turg'unlikning chastotaviy mezonlari avtomatik sistemalarning chastotaviy xarakteristikalari ko'rinishiga qarab ularning turg'unlik xolatlarini tekshirish imkonini beradi.

Turg'unlikning chastotaviy mezonlari grafoanalitik mezon bo'lib, sistemalarning turg'unligini tekshirishda juda keng qo'llaniladi. Chunki bu mezonlar yordamida yuqori darajali avtomatik sistemalarning turg'unlik holatini tekshirish ancha oson hamda ular sodda geometrik tasvirga egadirlar.

Turg'unlikning Naykvist mezoni ochiq sistemaning amplituda faza xarakteristikasi (AFX) buyicha berk sistemaning turg'unligini tekshirish imkonini beradi. Ochiq sistemaning AFX sini esa analitik, xamda esperimental yo'l bilan olish mumkin.

Turg'unlikning bu mezoni aniq ravshan fizik ma'noga ega, ya'ni bu mezon ochiq sistemaning stasionar chastotali xususiyatlarini berk sistemaning nostasionar xususiyatlari bilan bog'laydi. Ochiq sistemaning uzatish funksiyasi $W(p)=P(p)/Q(p)$ berilgan bo'lsin. Bu erda: $Q(r)$ - ochiq sistemaning xarakteristik tenglamasi. Berk sistemaning uzatish funksiyasi:

$$\Phi(p) = \frac{W(p)}{1+W(p)} = \frac{\frac{P(p)}{Q(p)}}{1 + \frac{P(p)}{Q(p)}} = \frac{P(p)}{Q(p)+P(p)},$$

$$A(p) = 1+W(p) = 1 + \frac{P(p)}{Q(p)} = \frac{Q(p)+P(p)}{Q(p)} - \text{berk sistemaning xarakteristik}$$

tenglamasi.

$Q(p)+P(p)$ - berk sistemaning xarakteristik polinomini ifodalaydi, bu erda $Q(p)$ - polinomi « n » darajaga ega, $R(r)$ - polinomi « m » darajaga ega.

Sistemani ishga ishga tushirish uchun esa doimo $m < n$ bo'lishi kerak. Shuning uchun $[Q(r)+R(r)]$ polinomi ham « n » darajaga ega bo'ladi. Ochiq sistemaning o'zi turg'un va noturg'un holatda bo'lishi mumkin:

Ochiq sistema turg'un holatda

Xarakteristik tenglamaning o'ng ildizlar soni $l=0$ Mixaylov mezoniga muvofiq ochiq sistema xarakteristik tenglamasi argumentining o'zgarishi:

$$\Delta \arg Q(j\omega) - n \frac{\pi}{2}$$

$0 < \omega < \infty$

Endi berk sistema turg'un bo'lishini talab etamiz. Unda quyidagi tenglik bajarilishi lozim:

$$\Delta \arg [Q(j\omega) + P(j\omega)] = n \frac{\pi}{2}$$


$0 < \omega < \infty$

(4.1) ifodaga muvofiq berk sistema xarakteristik tenglamasining argument o'zgarishi:

$$\Delta \arg A(j\omega) = \Delta \arg [Q(j\omega) + P(j\omega)] - \Delta \arg Q(j\omega) = n \frac{\pi}{2} - n \frac{\pi}{2} = 0$$

$0 < \omega < \infty$ $0 < \omega < \infty$ $0 < \omega < \infty$

Shunday qilib, berk sistema turg'un bo'lishi uchun chastota. $0 < \omega < \infty$ o'zgariganda $A(j\omega)$ vektorning koordinata o'qi atrofidagi burchak burilishi (argument o'zgarishi) nolga teng bo'lish kerak, yoki chastota $0 < \omega < \infty$ o'zgariganda berk sistema AFX $A(j\omega)$ koordinata boshini, ya'ni (0;0) nuqtani o'z ichiga olmasligi kerak. $A(j\omega) = 1+W(j\omega)$ godografining ko'rinishi 4.1-rasmda ko'rsatilgan.




4.1-rasm.

Lekin berk sistemaning AFX $A(j\omega)=1+W(j\omega)$ ochik sistemaning AFX $W(j\omega)$ dan faqat «+1»gagina farq qiladi.

Shuning uchun yuqorida keltirilgan Naykvist mezonining ta'rifini ochiq sistemaning AFX $W(j\omega)$ ga tadbiiq etganimizda Naykvist mezonini kuyidagicha. ta'riflash mumkin:

Berk sistema turg'un bo'lishi uchun ochiq sistemaning AFX $W(j\omega)$ si chastota $0 < \omega < \infty$ o'zgariganda $(-1; j0)$ kritik nuqtani o'z ichiga olmasligi kerak (4.2-rasm).



4.2-rasm.

Ochiq sistema noturg'un holatda

Bunda ochiq sistema xarakteristik tenglamasi l o'ng ildizga ega ya'ni $l \neq 0$, unda argumentlar prinsipiga muvofiq.

$$\Delta \arg Q(j\omega) = (n - 2l) \frac{\pi}{2} \quad 0 < \omega < \infty$$

bo'ladi.

Agar sistemaning turg'un bo'lishini talab etsak, unda quyidagi shart bajarilish kerak:

$$\Delta \arg [Q(j\omega) + P(j\omega)] = n \frac{\pi}{2} \quad 0 < \omega < \infty$$

u holda $A(j\omega)=1+W(j\omega)$ vektorining argument o'zgarishi


$$\Delta \arg A(j\omega) = \Delta \arg [Q(j\omega) + P(j\omega)] - \Delta \arg Q(j\omega) = n \frac{\pi}{2} - (n - 2l) \frac{\pi}{2} = l\pi \quad 0 < \omega < \infty$$

bo'ladi, ya'ni $A(j\omega)$ vektorining koordinata o'kining boshi atrofidagi summar burchak burilishi turg'un berk sistema uchun « $l\pi$ » ga teng bo'lishi lozim.

Bundan Naykvist mezonining quyidagi ta'rif kelib chiqadi.

Berk sistema turg'un bo'lishi uchun chastota $0 < \omega < \infty$ o'zgariganda ochiq sistemaning AFX $W(j\omega)$ kritik nuqta $(-1; j0)$ ni $l/2$ marta o'z ichiga

olishi kerak; bunda l -ochiq sistema xarakteristik tenglamasining o'ng ildizlar soni (4.3-rasm).




4.3-rasm.

$W(j\omega)$ godografi $(-1; j0)$ nuqtani bir marta o'z ichiga olayпти. Shuning uchun bunda ochiq sistemaning o'ng ildizlar soni $l=2$, chunki $l/2=1 \Rightarrow l=2$. Demak ochiq sistema o'ng ildizlar soni $l=2$ bo'lganda berk sistema turg'un bo'ladi. $l \neq 2$ bo'lsa, berk sistema ham noturg'un bo'ladi.

Amaliy masalalarni echishda Ya. 3. Sipkin taklif etgan "o'tish qoidasini" qo'llash maqsadga muvofiqdir.

$W(j\omega)$ xarakteristikani o'tish deganda shu xarakteristikaning kompleks tekisligida manfiy haqiqiy o'qni $(-1; j0)$ nuqtaning chap toponida, ya'ni $(-\infty; -1)$ kesmada kesib o'tishi nazarda tutiladi.

Agar $W(j\omega)$ xarakteristikasi kritik nuqta $(-1; j0)$ ning chap tomonini, ya'ni $(-\infty; -1)$ kesmani chastota $0 < \omega < \infty$ o'zgarganda pastdan yuqoriga kesib o'tsa, musbat o'tish yuqoridan pasga kesib o'tsa, manfiy o'tish deyiladi (4.4-rasm).




4.4-rasm.

Yuqorida aytilganlarni eʻtiborga olgan xolda Naykvist mezoniii quyidagicha taʻriflash mumkin.

Berk sistema turgʻun boʻlishi uchun ochiq sistema AFX $W(j\omega)$ ning chastota $0 < \omega < \infty$ oʻzgarganda $(-\infty; -1)$ kesma orqali musbat va manfiy oʻtishlarining ayirmasi $l/2$ ga teng boʻlishi kerak. Bunda l -ochiq sistema xarakteristik tenglamasining oʻng ildizlar soni.

Agar $W(j\omega)$ xarakteristikasi $\omega=0$ boʻlganda $(-\infty; -1)$ kesmada boshlansa, yoki $\omega=\infty$ boʻlganda shu kesmada tugasa, unda $W(j\omega)$ xarakteristikaning bu kesmadan oʻtishini yarim oʻtish deyiladi (4.5-rasm).




4.5-rasm.


Statik ochiq sistemalarning xarakteristikalari chastota oʻzgarganda berk kontur xosil kiladi.

Ideal integrallovchi zvenosi boʻlgan astatik ochiq sistemalarning $W(j\omega)$ xarakteristikalari chastota $0 < \omega < \infty$ oʻzgarganda yopik kontur hosil qilmaydi.

4.5. Ishni bajarish boʻyicha metodik koʻrsatma


Sistemalarning turgunligini Naykvist mezoni buyicha tekshirganimizda kerakli sistema modeli struktura sxemasi tuziladi.

1. **File/New/Model** buyrugʻi yordamida yoki instrumentlar panelidagi  tugmani qoʻllash yordamida yangi model faylini tuzish (bu erda va keyinchalik, «/» belgisi yordamida ketma-ket bajarish uchun tanlash lozim boʻlgan programma menyusi punktlari koʻrsatiladi) (4.6-rasm)



4.6- rasm. Model tuzish oynasi.

2. Model oynasiga bloklarni qo'yish. Buning uchun mos keluvchi kutubxona bo'limini ochish kerak (Masalan, **Sources** – Istochniki). Keyin esa kursor bilan kerakli blok tanlanadi va sichqonchanning chap tugmachasini bosib quyib yubormagan holda, blokni tuzilgan saxifaga «ko'chirib o'tkaziladi». 4.7-rasmda bloklardan tashkil topgan model oynasi.




4.7- rasm. Bloklardan tashkil topgan model oynasi.

Blokni o'chirish uchun o'chirilishi lozim bo'lgan blok tanlanadi (kursor bilan uning rasmini ko'rsatish va sichqonchanning chap tugmachasini bosish orqali), so'ngra klaviaturadagi **Delete** klavishi bosiladi.


Blok o'lchamlarini o'zgartirish uchun o'zgartirilishi lozim bo'lgan blokni tanlash kerak, sichkoncha bilan blok burchaklaridan biri belgilanadi va chap tugmachasini bosgan xolda blok o'lchamlari o'zgartiriladi (bu holda kursor ikki tomonga qaragan strelka ko'rinishiga ega bo'ladi).

3. Agar extiyoji bo'lsa, dastur tomonidan o'rnatilgan parametrlarni o'zgartirish mumkin. Buning uchun kursor yordamida tanlangan blokda sichqonchanning chap tugmachasini ikki marotaba bosish kerak. Natijada, ushbu blok parametrlarini taxrir qilish saxifasi ochiladi. Sonli parametrlarni kiritish jarayonida butun sonlar vergul bilan emas, balki nuqta bilan ajratilishini inobatga olish zarur. O'zgartirishlar kiritib bo'lgandan so'ng saxifani **OK** tugmachasini bosish orqali yopish kerak.
- 4.8- rasmda misol tariqasida uzatish funksiyasini modellashtiruvchi blok va ushbu blok parametrlarini taxrirlovchi saxifa ko'rinishi keltirilgan. Bu oynadagi **Numerator** qatoriga uzatish funksiyasini suratidagi ko'pxadni koeffisientlar darajalari kamayib borish tartibida kiritiladi. **Denominator** qatoriga uzatish funksiyasini maxrajidagi ko'pxadni koeffisientlar darajalari kamayib borish tartibida kiritiladi.



4.8-rasm. Uzatish funksiyasi bloki va berilgan blok parametrlarini taxrirlash oynasi.

4. Kutubxonadan kerakli barcha bloklarni sxemada joylashtirgandan so'ng sxema elementlarini bog'lashni bajarish zarur. Bloklarni bog'lash uchun kursor bilan blokning «chiqish»ini belgilash, so'ngra sichqonchanning chap tugmachasini bosgan holda chiziqni (liniyani) keyingi blok kirishiga keltirish kerak. Shundan so'nggina klavishani qo'yib yuborish mumkin. Tarmoqlanish nuqtasini xosil qilish uchun kursorni ulanish chizig'ida kerak bo'lgan tugunga olib kelish va sichqonchanning o'ng klavishasini bosgan xolda chiziqni tortish zarur. Chiziqni o'chirish uchun o'chirilishi lozim bo'lgan chiziqni tanlash talab etiladi (bloklar ustida bajarilgani kabi), so'ngra klaviaturadagi **Delete** klavishasini bosish lozim. 4.9-rasmda bloklar o'rtasida bog'lash amali bajarilgan model sxemasi keltilgan.




4.9-rasm. Bloklar o‘rtasida bog‘lanish bajarilgan model.

5. Xisoblash sxemasini tuzgandan so‘ng uni oynadagi **File/Save As...** menyu punktini tanlab, xamda fayl nomi va papkani ko‘rsatib, diskda fayl ko‘rinishida saqlash lozim. Shuni inobatga olish kerakki, fayl nomi 32 simvoldan oshmasligi, xarfdan boshlanishi hamda kirill va maxsus simvollaridan tashkil topmagan bo‘lishi kerak. Shu talablar fayl yo‘li uchun ham ahamiyatli (fayl saqlanadigan papkalarga). Sxemani qayta taxrirlash jarayonlarida saqlash uchun **File/Save** menyu punktidan foydalanish etarli. **Simulink** qism dasturini qayta ishga tushirganda sxemani yuklash kutubxona nazorat qiluvchi saxifadagi yoki **MatLAB** asosiy saxifasidagi **File/Open** menyu punkti yordamida amalga oshiriladi.


Sistemaning turli xarakteristikalarini olish yoki turg‘unlikka tekshirish uchun **Simulink LTI-Viewer** qism dasturini ishga tushirish lozim. Bu quyidagicha amalga oshiriladi:

1. **Simulink**-modeli sahifasida **Tools/Linear Analysis...** komandasini bajarilganda **Model_Inputs_and_Outputs** sahifasi hamda **Simulink LTI-Viewer** bo‘sh sahifasi ochiladi (4.10-rasm).



4.10-rasm. Simulink LTI-Viewer bo'sh sahifasi.


2. Sistema kirishiga **Input Point** bloki va chiqishiga **Output Point** blokini o'rnatiladi (4.11-rasm).



4.11-rasm. **Input Point** bloki va **Output Point** bloki o'rnatilgan model.


3. **LTI Viewer** sahifasida **Simulink\Get Linearized Model** komandasi bajariladi.

Bunda ekranda sistemaning birlik pogonali signalga bulgan reaksiyasi $h(t)$ -xarakteristika xosil buladi. Sitemaning vazn funksiyasini chikarish uchun **LTI Viewer** saxifasida sichkonchanning o'ng klavishasini bosiladi unda xarakteristikani uzgartirish darchasi paydo buladi. U erdan **Impulse** punkti tanlaniladi (4.12-rasm).




4.12-rasm.. LTI Viewer sahifasi.

Sistemning Naykvist mezonini bo'yicha diagrammasini chiqarish uchun **LTI Viewer** sahifasida sichkonchani chap tugmachasi bosiladi unda xarakteristikani o'zgartirish oynasi hosil bo'ladi (4.13-rasm).



4.13-rasm.

U erdan **nyquist** punktini tanlaniladi va Naykvist diagrammasi olinadi (4.14-rasm).



4.14-rasm.


4.6. Ishni bajarish tartibi.

1. **MatLAB** dasturi ishga tushiriladi.
2. **Simulink** qism dasturi ishga tushiriladi.
3. Variant bo'yicha kerakli sistema modeli tuziladi.
4. Sistemaning chastotaviy xarakteristikalarini qurish uchun **Simulink LTI-Viewer** sahifasi ochiladi.
5. Sistema kirishiga **Input Point** bloki va chiqishiga **Output Point** blokini o'rnatiladi.
6. **LTI Viewer** sahifasida **Simulink\Get Linearized Model** komandasi bajariladi.
7. **LTI Viewer** sahifasida sichkonchanning chap tugmachasi bosiladi va undan Naykvist diagrammasi tanlaniladi.
8. Model parametrlarini o'zgartiriladi va o'zgartirilgan modeldan Naykvist diagrammasi olinib avvalgisiga bilan taqqoslanadi.
9. Diagramma bosmaga chiqariladi.
10. Qurilgan diagrammadan sistemaning turg'unligi tekshiriladi.

4.7. Sinov savollari.

1. Dinamik sistemalarning turg'unligi.
2. Turg'unlikning Gurvis mezonlari.
3. Turg'unlikning chastotaviy mezonlari.
4. Turg'unlikning Naykvist mezonlari.
 - Ochiq sistema turg'un holatda.
 - Ochiq sistema noturg'un holatda.

Variantlar:



№	Uzatish funksiyalari										
	1-tartibli inersial zveno		Intergall ovchi zveno	Proporsi o-nal zveno	Tebranuvchi zveno			Differensia 1-lovchi zveno	1-tartibli inersial zveno		Proporsional zveno
	K	T	K	K	K	d	T	K	K	T	K
1	W ₁		W ₃	W ₅	W ₇			W ₆	W ₂		W ₄
	1	0,1	1	9	1	0,2	0,3	3	2	10	1
2	W ₃		W ₇	W ₄	W ₁			W ₅	W ₆		W ₂
	1	0,1	0	10	2	0,1	0,6	4	22	7	19
3	W ₇		W ₅	W ₄	W ₆			W ₁	W ₂		W ₃
	2	0,5	2	0	4	0,8	2	2	18	0,7	3
4	W ₆		W ₁	W ₃	W ₂			W ₄	W ₇		W ₅
	14	10	3	11	1	0,01	0,1	1	1	0,2	5
5	W ₅		W ₂	W ₆	W ₃			W ₇	W ₁		W ₄
	5	0,9	1	18	3	0,5	1	0	2	0,2	3
6	W ₁		W ₃	W ₅	W ₇			W ₆	W ₂		W ₄
	2	1	4	17	5	0,9	2	6	1	0,1	5
7	W ₃		W ₇	W ₄	W ₁			W ₅	W ₆		W ₂
	8	0,4	3	22	2	0,7	3	3	8	9	0
8	W ₇		W ₅	W ₄	W ₆			W ₁	W ₂		W ₃
	9	5	2	0	4	0,4	0,9	4	7	7	10
9	W ₆		W ₁	W ₃	W ₂			W ₄	W ₇		W ₅
	10	8	0	30	6	0,3	1,3	7	9	5	30
10	W ₅		W ₂	W ₆	W ₃			W ₇	W ₁		W ₄
	1	0,1	5	1	1	0,6	0,8	2	14	10	26
11	W ₃		W ₇	W ₄	W ₁			W ₅	W ₆		W ₂
	22	9	0	2	3	0,1	2,5	6	11	9	22
12	W ₇		W ₅	W ₄	W ₆			W ₁	W ₂		W ₃
	24	7	1	0	7	0,55	3	5	15	3	20
13	W ₆		W ₁	W ₃	W ₂			W ₄	W ₇		W ₅
	15	6	2	6	2	1,5	0,5	4	19	7	19
14	W ₅		W ₂	W ₆	W ₃			W ₇	W ₁		W ₄
	30	4	4	8	6	0,15	2	1	10	5	11
15	W ₁		W ₃	W ₅	W ₇			W ₆	W ₂		W ₄
	7	3	5	7	5	0,8	1	2	3	1	0,8
16	W ₇		W ₅	W ₄	W ₆			W ₁	W ₂		W ₃
	9	2	3	9	4	0,65	2,9	7	24	0,8	0

17	W ₆		W ₁	W ₃	W ₂			W ₄	W ₇		W ₅
	3	5	2	14	3	0,3	4	1	26	8	21
18	W ₅		W ₂	W ₆	W ₃			W ₇	W ₁		W ₄
	4	0,2	4	0	8	0,5	2	1	29	8	17
19	W ₁		W ₃	W ₅	W ₇			W ₆	W ₂		W ₄
	26	10	2	11	1	0,63	0,7	5	30	2	12
20	W ₃		W ₇	W ₄	W ₁			W ₅	W ₆		W ₂
	19	0,8	3	15	2	0,7	0,7	4	2	0,1	16

5 - LABORATORIYA ISHI

NOCHIZIQLI BOSHQARISH SISTEMALARINI MODELLASHTIRISH

Ishdan maqsad

- nochiziqli sistemalarni SIMULINK paketida modellashtirish usullarini o'zlashtirish.

Ishning vazifasi

- model va uning ostsistemalarini qurish va taxrir qilishni o'rganish;
- «To'yinish» turdagi nochiziqli zanjirlarni qo'llanishini o'rganish;
- bitta ossillografda bir vaqtning o'zida bir nechta grafiklarni qurishni o'rganish;
- skriptlarni tuzish, taxrir qilish va to'g'irlashni o'rganish;
- grafik elementlarining xususiyatlarini o'zgartirishni o'rganish (shrift, chiziqning qalinligi).

Hisobotni rasmiylashtirish


Laboratoriya ishi bo'yicha hisobot *Microsoft Word* formati faylida (asosiy matn 1,5 interval orqali kengligi bo'yicha tekislab 12 pt o'lchamdagi **Times New Roman** shriftida) matnlar ketma-ketligi ko'rinishida bajariladi. U o'zida quyidagilarni qamrab olishi shart:

- fanning nomi, laboratoriya ishining tartibi va nomi;
- muallifning familiya ism-sharifi, gurux raqami;
- o'qituvchining familiya ism-sharifi;
- variant raqami;
- tadqiq qilinayotgan sistemaning qisqacha tavsifi;
- kulrang fon bilan ajratilgan (pastga qarang) instruksiyaning hamma punktlarini bajarilish natijalari: hisoblash natijalari, grafiklar, savollarga javoblar.

Hisobotni tayyorlashda MATLAB vositasining ishchi stolidan axborotlarni almashtirish buferi orqali ko'chirib olish tavsiya etiladi. Buning uchun barcha belgilarni bir hil kenglikda qilib, **Courier New** shriftidan foydalaniladi.

Sistema tavsifi

Bu ishda kemaning yo'nalishi bo'yicha boshqarish sistemasi ko'rilmogda. Uning struktura sxemasi quyidagi rasmda keltirilgan



O'lchov sistemasi

1-rasm. Kema yo'nalishini stabilash sistemasining struktur sxemasi

Kema harakatini ta'riflovchi chiziqli matematik model` quyidagi ko'rinishga ega:

$$\dot{\phi} = \omega_y$$

$$\dot{\omega}_y = -\frac{1}{T_s} \omega_y + \frac{K}{T_s} \delta$$

bu erda ϕ – goh u tomonga goh bu tomonga burilish burchagi (berilgan yo'nalishdan og'ish burchagi), ω_y – vertikal o'q atrofida aylanish burchak tezligi, δ – vertikal rulning muvozanat holatiga nisbatan burilish burchagi, T_s – doimiy vaqt, K – doimiy koeffitsient, birligi *rad/sek*.

Rul` burilish burchagidan u yoki bu tomonga burilish burchagiga uzatish funksiyasi quyidagi ko'rinishda yoziladi

$$P(s) = \frac{K}{s(T_s s + 1)}.$$

Yuritmaning chiziqli modeli o'zidan uzatish funksiyasi

$$R_0(s) = \frac{1}{T_R s},$$

ga teng bo'lgan birlik manfiy teskari bog'lanish bilan qamrab olingan integrallovchi zvenoni namoyon qiladi.

Rul`ning chegaraviy burilish burchagiga va tezlikning chegarasiga qo'yiladigan nochiziqli cheklanmalar

$$|\dot{\delta}(t)| < 3 \text{ } ^\circ / \text{sek}, \quad |\delta(t)| < 30^\circ.$$

U yoki bu tomonga burilish burchagini o'lash uchun girokompasdan foydalaniladi. Uning matematik modeli birinchi tartibli aperiodik zveno ko'rinishida uzatish funksiyasi bilan¹² yoziladi




$$H(s) = \frac{1}{T_{TB}s + 1},$$

Boshqarish qurilmasi sifatida uzatish funksiyasi



$$C(s) = K_c \left(1 + \frac{T_s s + 1}{T_v + 1} \right) + \frac{1}{T_I s}, \text{ bu erda } T_v = 1 \text{ sek i } T_I = 200 \text{ sek.}$$




ga teng PID-rostlagichdan foydalaniladi.

Ishni bajarish bo'yicha instruksiya

Topshiriqni bajarish tartibi	MATLAB buyruqlari
1. O'zingizni papkangizni MATLAB ishchi papkasi qilib yarating	Current Directory maydonidan o'ngga  tugma bo'yicha SChT
2. Ishchi papka oynasini oching	View - Current directory
3. № 3 laboratoriya ishida qurilgan model'ni oching.	lab3.mdl ga ikki marta bosish
4. Model'ni lab5.mdl nomi ostida o'zingizni papkangizga saqlab quying	 File - Save as ...
5. Sichqoncha orqali rostlagich bilan birgalikda integratorni belgilang va ostsistemaga aylantiiring.	 Edit - Create subsystem
6. Ostsistemaga Rostlagich nomini bering, nomini yuqoriga joylashtiring va fon rangini o'zingizni hoxishingizga qarab tanlang.	Blokka ikki marta bosish SO`T - Format - Flip name SO`T - Background color
7. Bu blokning chiqishi va kirishiga mos ravishda e va u nomlarini bering.	Blokka ikki marta bosish Kirish va chiqish nomlariga SChT


¹² Ish oxiridagi jadvaldan K , T_s , T_R va T_{TB} qiymatlarini oling.

<p>8. Shunga o'xshash, u kirishi va delta chiqishi bilan Yuritgich ostsistemasini va f va delta kirishlari phi chiqishi bilan Kema ostsistemasini quring. Model'ni saqlang va nusxasini almashtirish buferi orqali hisobotga ko'chiring.</p>	
<p>9. Signallar manbai va ossillograflardan tashqari barcha bloklarni sichqoncha bilan belgilang. Kirishi r (berilgan yo'nalish) va f (g'alayonlash) va chiqishlari phi va delta bo'lgan Chiziqli sistema ni yarating.</p>	 <p>Edit - Create subsystem</p>
<p>10. Chiziqli sistema blokining nusxasini olib, uning nomini Nochiziqli sistema deb o'zgartiring. Yangi blok kirishlariga o'sha signallarni (berilgan yo'nalish va g'alayonlash) ulang. Chiziqli sistema uchun sariq fon rangini, nochiziqli uchun esa - binafsha rang fon rangini o'rnatang.</p>	<p>SO'T yordamida o'tkaziladi Format - Background color</p>
<p>11. Nochiziqli sistemada Yuritma ostsistemasini oching. Biz rul' chegaraviy burilish burchagi cheklanmalarini va uning o'zgarish tezligini hisobga olgan holda yuritmaning nochiziqli modelini quramiz.</p>	<p>Blokka ikki marta bosish</p>
<p>12. Birikish chiziqchlarni o'chiring.</p>	<p>elementga SChT, Delete bosish.</p>
<p>13. Uzatish funksiyasini quyidagiga o'zgartiring</p> $R_0(s) = \frac{1}{T_R s}$	<p>• Denominator blokiga ikki marta bosish</p>

14. <i>Library Browser</i> oynasini oching.	 View – Library Browser
15. Model` oynasiga Math Operations guruhidan Sum blokini o`tkazing. Uni shunday o`zgartiringki, manfiy teskari bog`lanish hosil bo`lsin.	Blokka ikki marotaba bosish, List of signs maydonida +- kiritish
16. Model` oynasiga Discontinuities guruhidan Saturation (nasishenie) ikkita blokini o`tkazing. Bitta blokni integrator oldidan (chegaraviy tezligiga cheklanma), ikkinchisini – integratordan so`ng (perekladka burchagiga cheklanma) joylashtiring.	
17. Ruľ ning chegaraviy burilish tezligi 3 gradusdan va chegaraviy burilish burchagi 30 gradusdan oshmaydigan qilib, ruxsat etilgan qiymatlarning chegaralarini kiriting. Hisobotda barcha belgilangan qiymatlarni ko`rsating.	<ul style="list-style-type: none"> • Upper limit • Lower limit bloklariga ikki marta bosish
18. Kerakli usul bilan bloklarni ulang. Yuritma nochiziqi ostsistema sxemasining nusxasini hisobotga ko`chiring.	
19. Ortiqcha oynalarni yoping va model`ning asosiy oynasiga o`ting. Shift klavishasini bosgan holda ikkita ossillografni o`ng tomonga o`tkazib aloqalardan uzing.	
20. Model` oynasiga Signal Routing guruhidan Mux (mul` tipleksor)ni ikkita blokini o`tkazing. Bu bloklar signallarni «jgut» (ko`pjilali kabel`) ga birlashishi uchun xizmat qiladi.	
21. Birinchi blok kirishlarini chiziqli va noziqli sistemaning boqqarish signallari bilan (delta), chiqishini esa – Ruľ ossillografi kirishi bilan ulang.	
22. Shunga o`xshash, ikkinchi mul` tipleksorning kirishlarini chiziqli va nochiziqli sistemalarning chiqish signallari (phi) bilan,chiqish esa - Yo`nalish ossillografi kirishi bilan ulang.	
23. Model`ni saqlab quyuing va nusxasini almashtirish buferi orqali hisobotga ko`chiring.	

24. Berilgan yoʻnalishni 10 gradusga va gʻalayonlashni 0 ga oʻrnatib. Loyihalashni bajarib va natijalarni koʻring. Sariq grafik ossillograflarning birinchi kirishining -(chiziqli sistema), binafsha rang esa – ikkinchisining (nochiziqli sistema) oʻzgarishini koʻrsatadi.	
25. Chiziqli va nochiziqli sistemalarning loyihalash natijalari nima uchun toʻgʻri kelmasligini tushuntirib bering. Qaysi nochiziqli zveno sezilarli darajada natijaga taʼsir koʻrsatadi?	
26. Yangi M-fayl yarating.	File – New – M-file
27. Redaktor oynasida yoʻnalish boʻyicha oʻtish jarayonlarining grafiklarini chiqarish uchun buyruqlar kiriting. Endi massiv phi uchta ustunni tashkil qiladi: vaqt va ossillograf ikki kirishidagi signallar (chiziqli va nochiziqli sistemalarning chiqishlari). % belgidan oʻngidagi barcha matnlar sharh boʻlib hisoblanadi. plot buyrugʻining uchinchi parametri rangni anglatadi: 'b' – koʻk, 'g' – yashil, 'r' – qizil va boshqalar. (bu buyruq boʻyicha spravkaga qarang). Komanda hold on buyrugʻi oldingi grafikni oʻchirilishi kerakmasligini anglatadi, hold off esa – oldingi grafik oʻchirilishi kerakligini anglatadi.	<pre>figure(1); % 1 rasm ochiladi subplot(2,1,1); plot(phi(:,1),phi(:,2),'b'); hold on; plot(phi(:,1),phi(:,3),'g'); hold off; legend('Chiziqli sistema, ... 'Nochiziqli sistema')</pre>
28. Faylni lab5graph.m nomi ostida saqlab quyung.	File – Save
29. Faylni (skript ¹³) bajarishga ishga tushiring. Agar ekranda grafik paydo boʻlmasa, MATLAB buyruq oynasiga xatolar haqidagi xabarlarga qarang.	F5 tugma
30. Bu buyruqni subplot chaqirilganidan soʻng quyib, shrift oʻlchamini kattalashtiring. Bu erda gca koordinata oʻqlarini anglatadi (<i>get current axis</i>). Yana bir bor skriptni ishga tushiring.	<pre>set(gca,'FontSize',16);</pre>

¹³ Skriptom deb MATLAB buyruqlaridan takil topgan faylga aytiladi. Uni yuklaganda buyruqlar birin ketin ketma-ketlikda bajariladi.

31. Skriptga № 3 laboratoriya ishidagiday grafik va koordinata o'qlari nomini ko'shing.	<pre>title('10 gradusga burish) xlabel('Vaqt, sek'); ylabel('\phi, grad');</pre>
32. Chiziqlar qalinligini kattalashtiring. S pomosh`yu funksii get funksiyasi yordamida biz avval barcha ob`ekt chiziq'larga ko'rsatkich massiv (xendlov, <i>handle</i>) larni olamiz. So'ng set funksiyasi yordamida har bir chiziqqa 1,5 punktga teng LineWidth (chiziq qalinligi) xususiyatini o'rnatamiz. Faylni saqlab quyining va uni bajarishga ishga tushiring.	<pre>h = get(gca, 'Children') set(h(1), 'LineWidth', 1.5) set(h(2), 'LineWidth', 1.5)</pre>
33. Skriptga shunday buyruqlar qo'shingki, ular yordamida oynaning pastki yarmida bitta grafikda chiziqli va nochiziqli sistemalarda boshqarish signallarining o'zgarishi egri chizig'i kurilsin. Bu grafik uchun sarlavha kiritmang (U yuqoridagi grafikka xalaqit beradi).	
34. Skriptning to'g'ri ishlaishiga erishing. Skript matnining nusxasirni hisobotga ko'chiring.	
35. Skriptni bajarish uchun ishga tushiring. Olingan grafikning nusxasini hisobotga ko'chiring.	
36. Berilgan yo'nalish kattaligini 90 gradusga o'zgartiring va yana loyihalashni o'tkazing.	 <p>Berilgan yo'nalish blokiga ikki marta bosish Final value maydonida 90 kiriting</p>
37. Redaktor oynasiga o'ting va grafik nomini «90 gradusga burilish» deb o'zgartiring. Yana skriptni ishga tushiring va kurilgan grafik nusxasini hisobotga ko'chiring.	<pre>title('90 gradusga buri- lish') F5 tugma print -dmeta</pre>
38. Chiziqli va nochiziqli modellar orasidagi farqlarning kattaligini tushuntirib bering. Qanday endi nochiziqliklar natijaga ta'sir ko'rsatadi?	

Koeffisientlar jadvali

Variant	T_s , sek	K , rad/sek	T_R , sek	T_{TB} , sek
1.	16.0	0.06	1	1
2.	16.2	0.07	2	2
3.	16.4	0.08	1	3
4.	16.6	0.07	2	4
5.	16.8	0.06	1	5
6.	17.0	0.07	2	6
7.	17.2	0.08	1	1
8.	17.4	0.07	2	2
9.	17.6	0.06	1	3
10.	17.8	0.07	2	4
11.	18.0	0.08	1	5
12.	18.2	0.09	2	6
13.	18.4	0.10	1	1
14.	18.6	0.09	2	2
15.	18.8	0.08	1	3
16.	19.0	0.07	2	4
17.	19.2	0.08	1	5
18.	19.4	0.09	2	6
19.	19.6	0.10	1	1
20.	18.2	0.0694	2	6

Ximoya uchun nazorat savollari

1. № 1, № 2 va № 3 ishlar savollariga qarang
2. Qanday bir nechta mavjud model` bloklaridan ostsistema quriladi?
3. Ostsistema nechta kirish va chiqishlarga ega bo`lishi mumkin?
4. Ostsistema qanday tahrir qilinadi?
5. Ostsistema kirish va chiqishlari nomlari qanday o`zgartiriladi?
6. Mavjud blok yoki ostsistema nusxasi qanday ko`chiriladi?
7. Blok yoki ulash chiziqlari qanday o`chiriladi?
8. Yuritmaning nohiziqli modeli strukturasi tushuntirib bering.
9. Nima uchun nohiziqli modelda yuritma chiziqli modelining umumiy uzatish funksiyasini qo`llash mumkin emas?

$$R(s) = \frac{1}{T_R s + 1} ?$$

10. Integrator kirishida joylashgan blok uchun tuyinish chegaralari qanday tanlanadi?
11. Blokni boshqa blok aloqalaridan qanday ajratsa bo'ladi?
12. **Mux** bloki nimaga mo'ljallanilishini aytib bering.
13. Ossillografning birinchi va ikkinchi kirishiga qaysi signal uzatilishi qanday farqiga boriladi?
14. MATLAB muxitida skript nimani anglatadi?
15. Skript ichidagi % belgi nimani anglatadi?
16. Qanday bir qatorga bir nechta buyruqlar kiritiladi?
17. Uzun buyruqni qanday to'g'ri keyingi qatorga o'tkaziladi?
18. **plot** funksiyasi chaqirilishida uchinchi aparmetr nimani anglatadi?
19. **hold on** va **hold off** buyruqlari nimani anglatadi?
20. Skript bajarilishga qanday ishga tushiriladi?
21. Skriptda faqat ba'zi buyruqlar qanday bajariladi?
22. **gca** nimani anglatadi?
23. **set** va **get** funksiyalari nima uchun mo'ljallangan?
24. Grafikdagi shrift o'lchami qanday bilinadi va o'zgartiriladi?
25. Grafik ob'ektning xendl (*handle*) buyrug'i nimaga kerak?
26. Grafikda chiziq qalinligi qanday o'zgartiriladi?
27. Skripdagi xatolar haqidagi xabarlar qaerda ko'rsatiladi?

Avtomatik boshqarish nazariyasi
5 – LABORATORIYA ISHI BUYICHA HISOBOT
Nochiziqli boshqarish sistemalarini modellashtirish

Bajardilar: _____


Tekshirdi: _____

Variant _____

20

1. Sistema tavsifi

Strukturali sxemasi rasmda ko'rsatilgan kema yo'nalishining nochiziqli boshqarish sistemasi tadqiq qilinmoqda



O'lchov sistemasi

Kema harakatini ta'riflovchi chiziqli matematik model` quyidagi uzatish funksiyasiga ega

$$P(s) = \frac{K}{s(T_s s + 1)}, \quad \text{bu erda } K = 0.0694 \text{ rad/sek}, \quad T_s = 18.2 \text{ sek},$$

Yuritmaning chiziqli modeli integrallovchi zvenodan iborat bo'lib, uzatish funksiyasi

$$R_0(s) = \frac{1}{T_R s}, \quad T_R = 2 \text{ sek},$$

birlik manfiy teskari bog'lanish bilan qamrab olingan.

Rul'ning chegaraviy burilish burchagiga va tezlikning chegaraviy burilish qo'yiladigan nochiziqli cheklanmalar

$$|\dot{\delta}(t)| < 3 \text{ } ^\circ / \text{sek}, \quad |\delta(t)| < 30^\circ.$$

O'lchash qurilmasi (girokompas)ning uzatish funksiyasi aperiodik zveno kabi modellashtiriladi

$$H(s) = \frac{1}{T_{TB}s + 1}, \quad T_{oc} = 6 \text{ sek,}$$

Boshqarish qurilmasi sifatida uzatish funksiyasi


$$C(s) = K_c \left(1 + \frac{T_s s + 1}{T_v + 1} \right) + \frac{1}{T_I s}, \quad \text{bu erda } K_c = 0.7045, \quad T_s = 18.2 \text{ sek,}$$

$$T_v = 1 \text{ sek, } T_I = 200 \text{ sek,}$$


ga teng PID-rostlagichdan foydalaniladi.

7. Nochiziqli modelni qurish

- ostsistemaga ajratilgan boshqarish sistemasi modeli




- yuritmaning nochiziqli modeli



- to'yinishning quyi va yuqori chegaralari
Saturation blokidan: -6 dan 6 gacha
Saturation1 blokidan: -30 dan 30 gacha
 bu kattaliklar ... tushuntiradi.

8. Chiziqli va nochiziqli modellarni taqqoslash


- chiziqli va nochiziqli modellarni taqqoslash uchun sistemalarning strukturali sxemasi




- grafiklarni qurish va rasmiylashtirish uchun skript

```
close(1);
figure(1);
subplot(2,1,1);
...
set(h(1), 'LineWidth', 1.5)
set(h(2), 'LineWidth', 1.5)
```

- yo'nalishna 10 graduga o'zartirish orqali olingan o'tish jarayoni



- chiziqli va nochiziqli sistemalarni modellashtirish natijalarining o'zaro farqi bilan tushuntiriladi.
- eng katta ta'sir bo'lib hisoblanadi (qanday nochiziqlik?), chunki ...
- o'sha vaqtda (ikkinchi nochiziqlik to'g'risida nima deyish mumkin?)
- yo'nalish 90 gradusga o'zartirish orqali olingan o'tish jarayoni



- chiziqli va nochiziqli sistemalarni o‘zaro farqi bilan tushuntiriladi.
- burchak burilishi ortganda chiziqli va nochiziqli sistemalarda o‘zaro jarayonlar farqi katta bo‘lishi kuzatiladi, chunki ...
- ushbu xolatda ... (nochiziqlik qanday ta‘sir ko‘rsatadi?)

6 – LABORATORIYA ISHI

MATLAB MUHITIDA DASTURLASH

Ishdan maqsad

- MATLAB muhitida dasturlash usullarini o'zlashtirish.

Ishning vazifasi

- ma'lumotlarni MATLAB ishchi doirasidan SIMULINK modeliga uzatishni o'rganish;
- MATLAB qo'shimcha funksiyalarini tuzishni o'ranish;
- hisoblash avtomatizatsiyasining ba'zi bir usullarini o'zlashtirish.

Hisobotni rasmiylashtirish


Laboratoriya ishi bo'yicha hisobot *Microsoft Word* formati faylida (asosiy matn 1,5 interval orqali kengligi bo'yicha tekislab 12 pt o'lchamdagi **Times New Roman** shriftida) matnlar ketma-ketligi ko'rinishida bajariladi. U o'zida quyidagilarni qamrab olishi shart:

- fanning nomi, laboratoriya ishining tartibi va nomi;
- muallifning familiya ism-sharifi, gurux raqami;
- o'qituvchining familiya ism-sharifi;
- variant raqami;
- tadqiq qilinayotgan sistemaning qisqacha tavsifi;
- kulrang fon bilan ajratilgan (pastga qarang) instruksiyaning hamma punktlarini bajarilish natijalari: hisoblash natijalari, grafiklar, savollarga javoblar.

Hisobotni tayyorlashda MATLAB vositasining ishchi stolidan axborotlarni almashtirish buferi orqali ko'chirib olish tavsiya etiladi. Buning uchun barcha belgilarni bir hil kenglikda qilib, **Courier New** shriftidan foydalaniladi.

Sistema tavsifi

Bu ishda kemaning yo'nalishi bo'yicha boshqarish sistemasi ko'rilmogda. Uning struktura sxemasi quyidagi rasmda ko'rsatilgan



1-rasm. Kema yo'nalishini stabillash sistemasining struktura sxemasi

Kema harakatini ta'riflovchi chiziqli matematik model` quyidagi ko'rinishga ega

$$\dot{\varphi} = \omega_y$$

$$\dot{\omega}_y = -\frac{1}{T_s} \omega_y + \frac{K}{T_s} \delta$$

bu erda φ – goh u tomonga goh bu tomonga burilish burchagi (berilgan yo'nalishdan og'ish burchagi), ω_y – vertikal o'q atrofida aylanish burchak tezligi, δ – vertikal rulning muvozanat holatiga nisbatan burilish burchagi, T_s – doimiy vaqt, K – doimiy koeffitsient, birligi *rad/sek*.

$$P(s) = \frac{K}{s(T_s s + 1)}.$$

Yuritmaning chiziqli modeli o'zidan uzatish funksiyasi

$$R_0(s) = \frac{1}{T_R s},$$

ga teng bo'lgan birlik manfiy teskari bog'lanish bilan qamrab olingan integrallovchi zvenoni namoyon qiladi.

Rul`ning chegaraviy burilish burchagiga va tezlik chegarasiga qo'yiladigan nochiziqli cheklanmalar

$$\left| \dot{\delta}(t) \right| < 3 \text{ } ^\circ / \text{sek}, \quad \left| \delta(t) \right| < 30^\circ.$$

U yoki bu tomonga burilish burchagini o'lchash uchun girokompasdan foydalaniladi. Uning matematik modeli birinchi tartibli aperiodik zveno ko'rinishida uzatish funksiyasi bilan¹⁴ yoziladi

$$H(s) = \frac{1}{T_{TB} s + 1}.$$





Boshqarish qurilmasi sifatida uzatish funksiyasi



